

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA’LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI PEDAGOGIKA FAKULTETI  
MUSIQA TA’LIMI

Shoyimov Eldor O‘ktamovichning

5111100 - Musiqiy ta’lim yo‘nalishi bakalavr darajasini olish uchun  
yozilgan

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “Turg’un Alimatov va Orif Alimaxsumovlarning milliy  
musiqamizga qo‘shgan hissasi”.



**Ilmiy rahbar:**

Qayumov.I.F

Buxoro – 2018

Mavzu: “Turg’un Alimatov va Orif Alimaxsumovlarning milliy musiqamizga qo‘shgan hissasi”.

## MUNDARIJA

KIRISH.....	4-8
<b>1-BOB. I. BOB. O‘ZBEK MUMTOZ MUSIQASI VA UNING XUSUSIYATLARI.</b>	
1.1. MUMTOZ MUSIQA JANRLARI VA ULARNING TURLARI.....	9-18
1.2. O‘ZBEK MUMTOZ CHOLG‘U MUSIQASI VA UNING TARBIYAVIY JIHATLARI .....	18-27
<b>2-BOB. YOSHLARDA O‘ZBEKISTON XALQ ARTISTLARI TURG‘UN ALIMATOV VA ORIF ALIMAHSUMOVNING SOZANDALIK, HOFIZLIK, USTOZLIK, HAQIDAGI FIKRLARINI O‘RGANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.</b>	
2.1. MAQOMLARNING MUSIQIY ILDIZLARI, TURG‘UN ALIMATOV MISOLIDA.....	28-38
2.2. O‘ZBEKISTON XALQ ARTISTI, USTOZ XONANDA ORIF ALIMAHSUMOVNING HAYOTI VA IJODI HAQIDA.....	38-54
2.3 USTOZ HAQIDA ZAMONDOSHLARI VA SHOGIRDLARI.....	55-62
XULOSA.....	63-64
ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	65

Mavzu: “Turg’un Alimatov va Orif Alimaxsumovlarning milliy musiqamizga qo‘shgan hissasi”.

## REJA

KIRISH.....

### **1-BOB. I. BOB. O‘ZBEK MUMTOZ MUSIQASI VA UNING XUSUSIYATLARI.**

1.1. MUMTOZ MUSIQA JANRLARI VA ULARNING TURLARI.

.....

1.2. O‘ZBEK MUMTOZ CHOLG‘U MUSIQASI VA UNING TARBIYAVIY JIHATLARI .....

### **2-BOB. YOSHLARDA O‘ZBEKISTON XALQ ARTISTLARI TURG‘UN ALIMATOV VA ORIF ALIMAHSUMOVNING SOZANDALIK, HOFIZLIK, USTOZLIK, HAQIDAGI FIKRLARINI O‘RGANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.**

2.1. MAQOMLARNING MUSIQIY ILDIZLARI, TURG‘UN ALIMATOV MISOLIDA

2.2. O‘ZBEKISTON XALQ ARTISTI, USTOZ XONANDA ORIF ALIMAHSUMOVNING HAYOTI VA IJODI HAQIDA

2.3 USTOZ HAQIDA ZAMONDOSHLARI VA SHOGIRDLARI.

XULOSA.....

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....

## **Kirish.**

San'atshunoslikda o'zbek sozandaligining ijrochilik xususiyatlari yoritilgan. Biroq har bir janr va uslub nuqtai nazaridan ijrochilik xususiyatlarini tasniflanishini o'rganish hamda ilmiy asoslab berish hozirda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Sozanda avvalo, o'z cholg'usi va mumtoz musiqiy yo'llarini botiniy va zohiriy xususiyatlarini mukammal bilishi zarur. Shunday ekan maqom, mumtoz sozandalik, ijrochilik yo'nalishlarini hamda turli xalqona janrlarni ustoz sozandalar ijro uslublari nuqtai nazaridan o'rganish nihoyatda muhim. Bu esa milliy-an'anaviy ijrochilik san'atimizdagi Turg'un Alimatov kabi ustozlarning ijro uslub va usullarini bugungi ilm-fanga keng tadbiq etish dolzarb ekanini anglatadi.

Qadimdan ovozga eng mukammal cholg'u sifatida qaralgan. Musiqiy sozlar esa uning taqlidchisi sifatida ko'rilgan. Shunday ekan, ovoz manba'iga musiqiy soz sifatida harab, uning fiziologik hamda akustik jihatlarini o'rganish, sifatli ovoz hosil qilish yo'llarini izlab topish zarur. Shu bilan birga musiqiy cholg'ularning ovoz manbayiga o'xshatish ya'ni ixtibosini keltirish zarur.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni qabul qildi.<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil oktyabrdagi "Milliy maqom san'atini rivojlantirish va yoshlarni yuksak insoniy tuyg'ular ruhida tarbiyalash, ularning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san'atining keng imkoniyatlaridan foydalanish to'g'risida"gi Qarorida aytib o'tilgan.

O'tgan davr mobaynida O'zbekistonda maqom san'atini o'rganish va rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Aynisa, o'zbek "Shashmaqom"i nota matnlarining nashr etilishi va ularga muvofiq ravishda maqom kuy-qo'shiqlarining magnit lentalariga yozib olinishi ulkan ilmiy-madaniy ahamiyatga ega voqea bo'ldi.

Qarorda hozirgi kunda respublikada Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambli, hududlarda maqom jamoalari, O'zbekiston davlat konservatoriyasida shu yo'nalishda maxsus kafedra faoliyat ko'rsatayotgani, sohaga oid ilmiy izlanishlar olib borilayotganini alohida qayd etildi.

---

<sup>1</sup>

O‘zbek milliy maqom san’ati markazini tashkil etish taklifi ma’qullandi va uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- O‘zbekistonda maqom san’atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablar va an’analarni, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o‘rganish va qayta tiklash;
- o‘zbek maqom san’ati mumtoz va zamonaviy ijro namunalarining “oltin fondi”ni yaratish;
- xalqimiz, xususan, yosh avlodni maqom san’ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish;
- maqom san’ati bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish va tartib qilish bo‘yicha xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- mumtoz musqia merosimiz namunalarini notaga olish, mavjud yozuvlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish, maqom san’atining ijtimoiy-tarixiy ildizlari, ilmiy-nazariy negizlari, milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan bog‘liq jihatlarini yurtimiz olimlari va chet ellik mutaxassislar ishtirokida chuqur o‘rganib, yangi ilmiy tadqiqotlar yaratish;
- maqom san’atining ko‘p asrlik ijro yo‘llarini puxta o‘zlashtirib, ularni yangicha usullar bilan boyitib, yosh avlod vakillariga o‘rgatib kelayotgan maqomchilar, maqomshunos ilmiy-pedagog olimlar va mutaxassislar, Maqom markazi xodimlari faoliyatini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;
- yurtimizda maqom san’ati bo‘yicha xorijiy yetuk ijrochilarning o‘zaro tajriba almashuvi, mahorat darslari hamda turli xalqaro maqom anjumanlari va tanlovlarini tashkil etish;
- respublika hududlarida taniqli maqom ijrochilarining konsertlarini va mahorat darslarini tashkillashtirish;
- maqom san’atini radio-televideniya, ommaviy axborot vositalari va Internet orqali O‘zbekiston va chet ellarda keng targ‘ib etish.

SHuningdek, Madaniyat vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Moliya vazirligiga O‘zbekiston davlat konservatoriyasining Musiqiy sharqshunoslik kafedrasini negizida “Ozbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasini tashkil etish,

viloyatlardagi pedagogik oliy ta'lim muassasalarining musiqiy ta'lim yo'nalishida maqom san'atini maxsus fan sifatida o'qitishni joriy etish bo'yicha vazifalar qo'yildi.

Maqom yo'nalishida ijod ilib kelayotgan ijodiy jamoalar, ansambllar 2023-yilgacha barcha soliq to'lovlaridan ozod etildi.

Shuningdek, Prezidentimizning milliy san'atni rivojlantirish to'g'risidagi farmon va qarorlarida o'quv yurtlari va ijrochilik jamoalarida bu san'at turining rivojiga hissa qo'shadigan yosh sozandalarni izlab topish, kashf etish va tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuning uchun milliy ovoz hosil qilish, ustozona uslublar va ayniqsa ijro maktablarining o'ziga xos uslublarini o'rganish, chuqur tadqiq etish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

**Bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligi.** Yurtimizga zamonaviy, xorijiy musiqalar (ohanglar)ning kirib kelishi bilan birga ularning ovoz hosil qilish uslublari ham jadallik bilan bostirib kelmoqda. Bu ohanglarning salbiy va ijobiy tomonlari mavjud. Salbiy tomonlaridan biri shuki xonandalarning ko'pchiligi shularga taqlid qilib, ovozlarni xirgoyisifat yoki tomoqni qirib chiqarish orqali kuylashadi. Bunday ovoz hosil qilish uslublari o'zbekona ma'naviyatga, an'anaviy xonandalik ijro uslublari to'g'ri kelmaydi. Milliy xonandalik uslublari ham xorij an'analari qo'llaniladigan bo'lsa, bora-bora milliy ovoz hosil qilish uslublari muomaladan chiqib ketish havfi tug'iladi. Bunday oqibatlarini bartaraf etish uchun an'anaviy xonandalikda bugungi kun nuqtai nazari bilan ijrochilik xususiyatlarini o'rganish hamda tadqiq etish zarur.

O'tmishimizga bir nazar tashlar ekanmiz, musia san'ati naadar adimiy san'at ekanligini, uni avlodu-ajdodlarimiz ayotida oltin xazina bo'lib jaonga nom taratgan olimu-fozillar, mutafakkiru-allomalar, o'z davrining eng ilor kishilari ayotida, ularning o'lmas ijodi, izlanish va arashlarida aloida bir nur taratib turuvchi o'rin tutganligini ko'ramiz. O'rta asrlarda o'z ilmlari, kashfiyotlari bilan SHarni jaonga tanitgan Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Umar Xayyom, Kavkabiy, CHangiy kabi ajdodlarimiz atorida musiiy san'atimiz solnomalarini davom ettirgan ko'plab ofizlarimiz Abdulaziz ofiz, K.Jabborov, J.Sutonov, F.Sodiov, T.Jalilov, N.asanov,

I.Ikromov, .Toshmatov, M.Muratozoyev, YU.Rajabiy, F.Mamadaliyev, M.Muamedovlar O.otamov, K.Otaniyozov atori Turg'un Alimatov va Orif Alimahsumov kabi davrimiz ofiz san'atkorlarining nomlarini sharaf bilan tilga olish, ularning ayoti va ijodini o'rganish biz yoshlarning vazifamiz ekanligi bugungi kunda dolzarbligi bilan immatlidir. SHu nutai-nazardan bitiruv malakaviy ishimizning mavzusini buyuk ofizlarimiz Turg'un Alimatov va Orif Alimahsumovlarning ayoti va ijodiyotini o'rganishga baishladik.

**Bitiruv malakaviy ishimizning masadi:** O'zbekiston xal ofizlari Turg'un Alimatov va Orif Alimahsumovlarning ayoti va ijodiyotini o'rganish, yiilgan materiallar asosida umumlashtirish bitiruv malakaviy ishimizning masadi ilib belgiladik.

**Bitiruv malakaviy ishimizning obykti:** O'zbekiston xal ofizlari Turg'un Alimatov va Orif Alimahsumovlarning ayoti va ijodiyotini o'rganish jarayoni.

**Bitiruv malakaviy ishimizning predmeti:** O'zbekiston xal ofizlari Turg'un Alimatov va Orif Alimahsumovlarning ayoti va ijodiyotini o'rganishning mazmuni, shakl va uslublarini ishlab chiish.

**Bitiruv malakaviy ishimizning vazifalari uyidagilardan iborat:**

1. O'zbekiston xal ofizlari Turg'un Alimatov va Orif Alimahsumovlarning ayoti va ijodini nazariy o'rganish.
2. Ularning yozgan va kuylagan asarlariga tavsif berish.
3. Oliy va o'rta maxsus va xal talimi tizimidagi oliy va o'rta maxsus o'uv yurtlarida, umumtalim maktablari musia madaniyati darslari yuori sinf o'uvchilarida tizimli o'rganib borish.
4. Ular tomonidan kuylangan mumtoz asarlarni o'uvchi-yoshlar albiga singdirib borish, shu bilan birga musiiy merosimizni o'rganish va avas kabi is-tuyularni shakllantirish bitiruv malakaviy ishimizning asosiy vazifalaridan biri bo'lib isoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy farazi:**

- agar buyuk O'zbekiston xal ofizlari Turg'un Alimatov va Orif Alimahsumovlarning ayoti va ijodi talaba-yoshlarning musiiy talim yo'nalishlarida chuur o'rganilsa;

- ularning kuylagan, ijro etgan o'shilar umumtalim maktablari musia mdaniyat darslarida va musiiy talim yo'nalishidagi Oliy va o'rta maxsus talim tizimida fanning dasturiy o'uv rejasiga mavzu sifatida kiritilsa;

- ularning ijro etgan va kuylagan mumtoz kuy va o'shilar to'garaklarda, fakultet va o'rta maxsus talim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan ansambllarda yoshlarimiz tomonidan ijro etilib kuylanib borilsa, yoshlarda xal ofizlarimiz ijodini o'rganib borish ishlarining immati, ularning ongida shakllanishi amda kasbiy va ma'naviy tarbiyalanganlik darajasi ortib boradi deb isoblayman.

**Bitiruv malakaviy ishimizning metodlari:** O'zbekiston xal ofizlari Turg'un Alimatov Orif Alimahsumovlar tomonidan ijro etilgan musiiy asarlarni, ularning ayoti va ijodiga taalluli adabiyotlarni to'plash. SHu orali yiilgan materiallarni talil ilish, umumtashtirish, tinglash, kuzatish, ijodiy mash ilish, subat kabi pedagogik metodlaridan foydalanish, tarib ilish bitiruv malakaviy ishimizning metodlarini tashkil etadi.

**Bitiruv malakaviy ishimizning metodologik asosini** Prezident asarlari, san'atimizning rivoji chiarilgan farmonlar va arorlar, soaga oid olimlar, musiashunoslar, pedagogik va amaliyotchilarning fikr va muloazalari, mutaxassislarning risola, maola va adabiyotlarida bildirgan xulosalari isoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishimizning tarkibiy ismi:** Kirish, ikki bob, to'rt paragrif, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va nota ilovalaridan iborat.



## **1-BOB. O‘ZBEK MUMTOZ MUSIKASI VA UNING XUSUSIYATLARI.**

### **1.1. MUMTOZ MUSIQA JANRLARI VA ULARNING TURLARI.**

O‘zbek musiqa madaniyati qadimiy va rango-rang, ayni paytda yangi zamon an‘analarini o‘zida mujassam etgan xolda rivoj topmoqda. Bunda avvalo benazir xalq musiqasi, mumtoz musiqiy meros, milliy bastakorlik hozirgi zamon bastakorligi, shuningdek xalq xavaskorligi hamda jo‘shqin ommabop estrada ijodiyoti kabi shaklan va usluban nixoyatda serjilo jabxalar namoyon bo‘ladi. Istiqlol sharofati bilan milliy-ma‘naviy qadriyatlarimizga bo‘lgan diqqat-e‘tibor, unutilayozgan an‘analarimizni tarixan qisqa muddat ichida qayta tiklanishi, muttasil taraqqiy ettirish maqsadidagi yangilanish, islox etish jarayonlarida ustivorlik kasb etdi. SHuningdek qo‘shni va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-musiqiy aloqalarni o‘zaro boyitish yo‘lida rivojlantirish sa‘y-xarakatlari ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘ldi.

Sobiq sho‘ro davri mafkurasi iskanjalarida burilgan o‘zbek musiqa merosining SHarq xalqlari an‘analari bilan tarixiy aloqalari yangi bosqichga ko‘tarildi va ijodiy xamkorliklar yo‘lga qo‘yila boshladi. Aynan shu madaniy aloqalar, musiqaning iloxiy ta‘sir kuchi va o‘zbek xalqining boy musiqa merosining ahamiyati va mavqeini, uning SHarq musiqasi bilan mushtarakligini nazarda tutgan O‘zbekiston Prezidenti I.Karimovning "SHarq musiqasining jahon madaniy merosida tutgan o‘rni benixoya buyuk... Bu musiqa ming-ming yillardan beri odamlar dilini poklab, ularni ruhan yuksaltirib kelmoqda"<sup>2</sup> degan so‘zlari yuqoridagi fikrlar isbotidir.

Bugungi o‘zbek musiqa san‘atining jahon saxnalarida erishayotgan yutuqlari tahsinga sazovordir. Bunga, xususan, O‘zbekistan kompozitorlari asarlarining yirik va nufuzli xorijiy ijrochi jamoalari repertuarlaridan o‘rin olishi, etuk san‘atkorlarimiz — Turg‘un Alimatov AQSHda, Abduxoshim Ismoilov AQSH, Fransiya, Germaniyada, Munojot

Yulchieva Fransiyada, YUlduz Usmonova Gollandiya va Germaniyada, Nasiba Abdullaeva va "YAlla" ansambli AQSHda, Milliy simfonik orkestri Turkiyada, "So‘g‘diyona" o‘zbek xalq cholg‘ulari kamer orkestri Ispaniya, Gollandiya, Germaniya mamlakatlarida muvaffaqiyat qozongan gastrol va konsertlari yorqin

misoldir. SHuningdeq ushbu o'n yillik davrida ellikdan ortiq yosh iste'dodli sozanda va xonandalar nufuzli Xalqaro tanlovlarning sovrindorlari bo'lishdi. Ular orasida pianino ijrochilari — Ulug'bek Polvonov (Portugaliya, 1991; Italiya, 1996; Germaniya, 1996; Gruzziya, 1997; AKSH, 1998), Gulnora Alimova (Fransiya, 1993; Portugaliya, 1994; AKSH, 1995), Nargiza Alimova (Italiya, 1996; Belorussiya, 1996; SHimoliy Koreya, 1997), Irina Gulzarova (Italiya, 1997; Italiya, 1999; Ukraina, 2000), Rustam Abdullaev (Gretsiya, 2000), xonandalar — Anna Guzairova (Italiya, 1993), Sayda Mamadalieva (SHimoliy Koreya, 1996), Sevara Nazarxonova (Bolgariya, 1999), kamonlitorli cholg'u ijrochilari — Dilshod Nazarov (violonchel, Fransiya, 1999), Sunnat Ibroximov (violonchel, qozog'iston, 2001), Marina Sarkisova (skripka, Turkiya, 2000), Anastasiya YUdenich (skripka, Fransiya, 2001), damli cholg'u ijrochisi — Ali Izmaylov (qozog'iston, 1995) va boshqalar bor.

Prezident I. Karimov ta'kidlaganidek: "Ma'naviyat — insoniyatning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-quvvatidir". Ushbu oliy maqsadlarni xayotga joriy etish sohasida respublikamizda turli-tuman tadbirlar o'tkazilmokda. Bu borada, Prezidentimizning va respublika xukumatining keyingi besh yillikda e'lon qilgan Farmon va qarorlari ("O'zbeknavo" gastrol-konsert birlashmasini tashkil etish to'g'risida (1996), "O'zbekiston — Vatanim manim" qo'shiqlar bayramini o'tkazish to'g'risida (1996), "Respublikada musiqiy ta'limni, madaniyat va san'at o'quv yurtlari faoliyatini yaxshilash to'g'risida" (1996), "O'zbekiston Badiiy Akademiyasini tashkil etish to'g'risida" (1997), "O'zbekistonda estrada san'atini yanada rivojlantirish to'g'risida" (1998, 2001) va b.) o'zbek musiqa madaniyatining yanada rivoj topishiga va yuksalishiga qaratilgan. SHunga muvofiq ushbu o'n yillikda respublikamizda va uning musiqiy xayotida tarixiy voqealar va muhim o'zgarishlar ro'y berdi, jumladan, Samarqandda "SHarq taronalari" Xalqaro musiqa festivali (1997, 1999), Toshkentda Xalqaro simfonik musiqa festivali (1998, 2000), 1995 yildan boshlab Toshkentda "Ilxom — XX" Xalqaro zamonaviy kamer musiqasi festivali, 1996 yildan "O'zbekiston — Vatanim manim" qo'shiqlar tanlovi, 1999 yili "Alpomish" dostonining 1000 yilligi, 2000 yildan boshlab "Navruz" qo'shiqtanlovi, Amir Temur, Mirzo Ulug'beq Imom al-Buxoriy, al-Farg'oniy kabi buyuk ajdodlarimiz tavalludlariga bag'ishlangan shonli sanalar keng nishonlandi; ushbu

yillari o'zbek estrada san'ati xam qator yutuqlarga erishdi. "Ofarin", "Ona zamin yulduzlari", "Nixol" sovrinlarining ta'sis etilishi fikrimiz dalilidir.

Ma'lumki, o'zbek xalqining ma'naviy go'zalligi asrlar qa'ridan kelayotgan kuy-oxanglarida o'zining ajoyib, betakror badiiy in'ikosini toptan. Ulamolarimiz bergan ta'-riflardan biriga kura, musiqa — inson ruxining oziridir. Binobarin, milliy musiqa kup asrlar davomida ajdodlarimiz boy ma'naviyatining, teran tafakkurining, barkamol ruxiyatining sadolardagi jonli ifodasi va, ayni paytda, yangi, buyuk davlat bunyodkori bo'lmish jamiyatimizning rux, quvvati va jon oziridir.

Mustaqillik yillari o'zbek an'anaviy musiqasiga e'tibor yanada kuchaydi. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va marosimlarning tiklanishi musiqa soxdsida xam ancha o'zgarishlarga sabab bo'ldi. qadimiy milliy musikamizdagi boy badiiy-tasviriy vositalar bilan bir qatorda, yangi janr va turlarini o'zlashtirish natijasida o'zbek musiqa san'ati yana ham yuksak darajaga ko'tarildi. SHu boisdan respublika miqyosida ko'plab ko'rik-tanlovlar tashkil qilinmoqda. Xususan, ushbu o'n yillikda katta ashula ijrochiligi va oilaviy ansambllar (Qo'qon, 1991; SHaxrisabz, 1994), "Alla" ijrochilari (Toshkent, 1992, 1998, 2000; Marg'ilon, 1996), tuy-marosim qo'shiqlari ijrochilari (Toshkent, 1993), folklor-etnografik jamoalari "CHashma" tanlovi (Toshkent, 1994), "Iste'dod" nomli yosh xonandalar (Toshkent, 1995), baxshi-shoirlar (Denov, 1991; Narpay, 1993; Toshkent, 1997; Termiz, 1999), maqom ijrochilari va xalq cholg'ulari ansambllari (SHaxrisabz, 1996), "Barxayot siymolar" (Toshkent, 1997, 1998), oilaviy ansambllar (Jizzax, 1998), folklor-etnografik ansambllari (Toshkent, 1999), M.Uzoqov va J.Sultanov nomidagi yosh xonandalar (Marg'ilon, 1999), Xoji Abdulaziz Rasulov nomidagi yosh xonandalar (Samarqand, 1997), Komiljon Otaniyozov nomidagi yosh xonandalar (Urganch, 2001), YU. Rajabiy nomidagi IV Xalqaro va V Respublika Maqom ijrochilari (Toshkent, 1995, 1999), oilaviy ansambllar (1995) va folklor-etnografik jamoalari (1996), telefestivallar shular jumlasidandir.

Turfa mahalliy an'analar va xilma-xil ko'rinishlarni o'z ichiga olgan o'zbek musiqa merosi shu kunga qadar ikki asosiy qatlamda etib kelgan bo'lib, biri "xalq musiqasi" yoki "musiqiy folklor", yana biri esa "mumtoz-kasbiy" yoki "ustozona" musiqa deb yuritiladi. Ularning xar qaysisi "ko'p va xo'b" badiiy barkamol aytim hamda cholg'u

namunalaridan iborat. Ayni vaqtda qadimiy va boy musiqiy merosimiz yangi davrlarda qaror topgan bastakorlik an'alarini ham o'zida mujassam etgan xolda rivoj topmoqda. Bunda avvalo benazir musiqiy folklorning serjilo va rang-barang turlari namoyon bo'ladi.

Respublikamizning Istiqlolga erishishi munosabati bilan azaliy xalqchil qadriyatlarni tiklash, shu jumladan badiiy-musiqiy merosimizni atroflicha o'rganish va undan baxramand bo'lish uchun etarlicha imkoniyatlar vujudga keldi. Endilikda eski mafkura tobe'ligi ostida e'tiborsizlik oqibatida anchayin susayib qolgan, ayrim misollarda esa unutilayozgan o'ziga xos milliy musiqiy qadriyatlarimiz qaddini rostlay boshladi. Turfa maxalliy an'alar, badiiy barkamol aytim xamda cholg'u kuylardan iborat xalq musiqi ijodiyoti durdonalari nufuzli xalq, tantanalari va muxim sanalarga bag'ishlangan bayramlarda tarannum etila boshladi. Mamlakatimiz buylab Mustaqillik bayrami, Navro'z shodiyonalari, " O'zbekiston — Vatanim manim" respublika qo'shiq, bayramlari bilan bir qatorda alla, lapar, yalla, ashula ijrochilarining viloyat — respublika ko'rik tanlovlari va boshqa ommaviy tadbir (bayram, festival va tanlov)larning o'tkazilishi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Ayni paytda, musiqiy folklorning xalq ma'naviy xayoti va turmush tarzidagi tabiiy ko'rinishi xam davom etmokda. Bu vaziyatni oydinlashtirishda san'atshunos olimlarimizning ilmiy-amaliy safarlari, xususan, 1991 — 1992 yillari Jizzax viloyatiga, 1991—2001 yillari — Toshkent viloyatiga, 1991, 1997—1999 yillari Qashqadaryo — Surxondaryo viloyatlariga, 1993 yili — Farg'ona vodiysiga, 1995 yili Sirdaryo — Jizzax viloyatlariga, 1998 yili Jizzax va Samarqand viloyatlariga, 1999 — 2000 yillari Buxoro viloyati va Qoraqalpog'iston avtonom respublikasi xududlariga uyushtirgan musiqiy folklor — ekspeditsiyalari katta ahamiyatga ega bo'ldi (mazkur ekspeditsiya ishtirokchilari: R. Abdullaev, F. Karomatli, O. Ibroximov, S. Begmatov, N. Toshtemirov, M. Nosirov va boshqalar). Bu mehnatning natijasi o'laroq bugungi kunga kelib Respublikamiz xududlarida qo'shiq, terma, lapar-aytishuv va yalla tusidagi janrlar eng ommaviy aytimlardan ekanligi ma'lum bo'ldi. Zero, bu turdagi namunalar qariyb barcha viloyat tumanlarida uchraydi.

Marosim yoki muayyan vaziyat bilan bogʻlangan aytimlardan "YOr-yor", "Kelin salom" va "Ramazon" qoʻshiqlari ham shu koʻrsatkichni deyarli takrorlaydi. SHu bilan birga ashula va karsak janrlari maʼlum xududlarda, yaʼni ashula Fargʻona vodiysi, Toshkent, Buxoro, Samarqand, Xiva va Urganch shaxarlarida, karsak janri esa asosan Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro, Samarqand, Jizzax xududlarida yashovchi axoli orasida ijro etilib kelinmoqda.

Va, nixoyat, kichik xudud miqyosida yoyilgan namunalardan mavrigi — asosan Buxoro shaxri va viloyatidagi ayrim qishloqlarda, qisman Samarqand va Jizzaxda, yovvoylo — Fargʻona viloyatining Soʻx tumanida, rivoyat qoʻshiqlari Jizzax viloyatining Baxmal va Gʻallaorol tumanlarida, shuningdek dumbira va sibizra kuylari kengroq miqyosda Surxondaryo — Qashqadaryo voxalarida qayd qilingan.

SHu bilan birga, Respublikamiz musiqasida tavsif etilgan toʻrtta asosiy maxalliy uslub — Fargʻona—Toshkent, Buxoro—Samarqand, Surxondaryo — Qashqadaryo va Xorazm musiqiy anʼanalarining oʻzaro yaqinlashuvi xam etakchi tamoyillardan ekanligi maʼlum boʻldi. Bunga viloyatlararo axoli migratsiyalarining faollashganligi, axoli turmush tarzining oʻzaro yaqinlashuvi, shuningdeq ommaviy axborot vositalari, ayniqsa radio, televidenie va boshqa ovoz taratish texnik vositalari orqali madaniy qiymatlar almashinuvining jadallashganligi kabi muxim omillar sifatida koʻrsatilishi mumkin. Ayni paytda, yuqorida qayd etilgan maxalliy musiqiy uslublarning ayrim xususiyatlarini inʼikos etgan Jizzax viloyati xalq musiqasi ham eʼtiborni oʻziga tortmoqda. Zero bu xududga Respublikamizning turli viloyatlaridan (Samarqand, Toshkent, Fargʻona, Xorazm va b.) yangi erlarny oʻzlashtirish maqsadida migratsiya qilingan dehqon oilalari oʻzlari bilan birga maxalliy musiqiy anʼanalarni xam olib kelgan edilarki, natijada ularning yonma-yon xayoti va oʻzaro taʼsirlanish jarayonlari boshlanib ketdi.

SHuni xam aytish kerakki, xalq musiqa ijodiyotining alohida guruxi sifatida tasnif etilgan "muayyan vaziyat va tadbiru — marosim bilan shartlangan aytim — kuylar"ning hozirgi kundagi hayoti birdek kechmayapti. Tabiiiki, ayrim marosim, urf-odat va mexnat turlarining ijtimoiy moxiyati oʻz kuchini yoʻqotib borishi natijasida ular bilan bogʻliq aytim yoki kuylarning xam dastlabki vazifasi oʻzgarib, endilikda "nomarosim" xalq musiqasi guruxiga taalluli boʻlib qolmoqda, baʼzi

namunalar esa butkul unutilish darajasiga etgan. YUzaga kelgan bu vaziyatda Respublikamizda bir qator chora va tadbirlar (shu jumladan, folklor-etnografik ansamblarining tuzilishi va faoliyatiga katta e'tibor berila boshlanganligi, ko'plab ko'rik-tanlovlarning o'tkazilishi, musiqiy folklor namunalarining turli darajadagi ta'lim-tarbiya jarayonlariga jalb etilishi) amalga oshirildiki, bu xususda batafsilroq to'xtalish maqsadga muvofiqdir.

E'tirof etish kerakki, bizning davrimizga qadar etib kelgan musiqiy folklor namunalari ko'proq viloyatlarning qishloq tumanlarida o'zining tabiiy xayotini davom ettirib kelayotgan bo'lsada, biroq shaxar muhiti, turli ijtimoiy guruxlarning ma'naviy talab-extiyojlari ta'sirida xilma-xil tus olmoqda. Alalxusus, bugungi shaxar folklorining ajralmas ko'xna qismini "Yor-yor," "Kelin salom", "Alla" kabi xozirda xam asl qiyofasini deyarli saqlagan oilaviy marosim qo'shiqlari, shuningdeq oxang va so'z "matn"lari ma'lum o'zgarishlarga yuz tutgan "Ramazon" aytimi singari qariyb sanoqli namunalar tashkil etadi. Qolgan ko'pgina marosim va nomarosim aytim-kuylari endilikda tobora "saxna folklori"ga aylanib borayotganligini ko'ramiz. Bu jabxada ya'ni xalq aytimi va kuylarini tinglovchiga saxna orqali etkazish borasida ham bir necha ko'rinishlar yuzaga kelganki, ularni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

Folklor namunalarini tabiiy asl xoliga mos qayta sadolantirish;

Musiqiy folklori "saxna talablari"ga muvofiq qayta ishlov asosida ijro etish;

Xalq aytilari va kuylarini estrada yo'sinida ijro etish.

Musiqiy folklorning estrada qiyofasiga tobora jadal kirib borish tamoyili jaxonning qariyb barcha yirik markaziy shaxarlariga xos jarayon bo'lib qolmoqda. Bizda esa bu jarayon yana yosh estrada soxasining milliy lashuvi bilan ham borliqdir. Va, ko'p xollarda, aynan shunday badiiy jarayonlar vositasida yosh avlod vakillarining turfa musiqiy folklor bilan "ilk tanishuvlari" ro'y bermoqda. Binobarin, xalqimizning mavsumiy marosim qo'shiqlaridan tortib to qo'shiq, terma, lapar, yalla, ashula singari aytilarigacha ("YOmg'ir yoraloq", "Boychechak", "Marvarid", "Um-ufu", "Majnuntol" va b) o'z davrasiga tortayotgan ushbu estrada yo'nalishi musiqiy folklorning shaxar sharoitida o'zgacha yashash shakli va targ'iboti sifatida baxolanishi mumkin. Biroq shu asosda musiqiy didi va tinglov malakasi xosil

bo'lgan yoshlarning aksariyati folklor qiymatini uning asl tabiiy xolida namoyon bo'lishini to'la idrok eta olmayotganliklarini ta'kidlash kerak.

Shahar musiqiy madaniyatining muxim jihatlaridan yana biri bu musiqiy folklor namunalarini turli ijodiy guruxlar, xususan, folklor-etnografik ansambllari tomonidan "saxna sharoitida" ijro etilishi bo'lib qolmoqda.

Avvalambor ta'kidlash zarurki, so'nggi o'n yillik mobaynida folklor-etnografik ijodiy jamoalarining faoliyati yangi, yuqori bosqichga ko'tarildi. Zero, Mustaqil O'zbekistonda ilk bor nishonlangan Navro'z, shuningdek Mustaqillik bayramlaridan boshlab folklor-etnografik ansambllarining "katta saxna" maydonlariga chiqishlari an'ana tusini ola boshladi. Bu o'rinda Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq alohida e'tibor bilan o'tkazib kelinayotgan folklor jamoalari bilan bir qatorda yakkaxon qo'shiq, lapar, yalla va ashula ijrochilarining, shuningdek oilaviy ansambllarining an'anaviy respublika ko'rik-tanlovlari ham muxim rag'batlantiruvchi omillardan bo'lib qolmoqda. Endilikda turli avlod vakillaridan iborat musiqa va raqs dastalarini respublikamizda ko'plab uchratish mumkin. Jumladan, bugungi kunga kelib folklor-etnografik ansambllarining umumiy soni 300 dan ortib ketganligi qayd qilinmoqda. Muximi, bunday ansambllar o'z bisotidagi maxalliy mexnat ayimlari, mavsumiy-marosim qo'shiqlari, tuy marosimi qo'shiqlari, shuningdek lapar, yalla, xajviy qo'shiq va ashulalarni saxnavny ko'rinishlarda maxorat bilan ijro etib kelmoqda. "Besh karsak", "Boysun", "Gulyor", "Omonyor", "Gulchexralar", "Doston", "Besperde", "Orzu", "Yor-yor", "Chavki\*", "Moxi sitora" va boshqa ko'plab ansambllar milliy-badiiy merosni, unut bo'layotgan an'analarni o'rganib va o'zlashtirib, so'ngra ularni tomoshabinlarga "tortik" qilayotganlari alohida diqqatga sazovordir.

Xususan, xalq og'zaki musiqa ijodiyotinnng eng qadimiy namunalaridan biri bo'lgan mexnat ayimlari inson jismoniy faoliyatining ayrim ko'rinishlari, xususan, er xaydash, ekin ekish, qo'l tegirmon (yorguchoq)da don yanchish, charxda ip yigirish kabi jarayonlarda ijod etilgani ma'lum. Muayyan mexnatni bir maromda, uyushqoqlik bilan bajarishga ko'mak berish qatorida yana inson qalbiga oro bergan, roxat bag'ishlagan, umidvorliq ko'tarinkilik kayfiyatini jo qilgan mexnat qo'shiqlari zamonaviy muxit va sharoitlar ta'sirida o'zgarishlarga yuz tutayotganligini, ba'zan

dastlabki ijtimoiy axamiyatini yuqotayotganligini ham ta'kidlash joiz. Masalan, o'tmishda kush xaydab burdoy yanchishda aytiluvchi "Mayda-yo, mayda" xirmon qo'shish endilikda amaliyotda deyarli qo'llanilmaydi. Bu aytim "Boysun" (Surxondaryo viloyati Boysun tumani) va "Chavki" (Samarqand viloyati, Bulunrur tumani) folklor-etnografik ansambllari tomonidan qayta tiklangan bo'lsa-da, ammo o'ziga xos zamonaviy-saxnaviy ko'rinishlarda ikkilamchi folklor tusini olgan.

SHu bilan birga bug'doy o'rimi vaqtida ikki kishi tomonidan dalalarda, yaylovlarda ijro etiladigan "Yozi", bug'doy un qilinishi jarayonida aytiluvchi "Erg'uchoq", shuningdek sigir sog'imida aytiluvchi "Xo'sh-xo'sh", echki sog'imidagi "Chiray-chiray", qo'y sog'imidagi "Turay-turay" xamda don ekinlari xosiyatlarini ta'kidlovchi "Bobo dehqon" epik aytimlari hozircha asosan mutaxassis-tadqiqotchilar tomonidan ilmiy o'rganish ob'ekti bo'lib qolmoqda, xolos.

Ayni paytda mavsum va marosim kuy-qo'shiqlarini o'rganish (ba'zi xollarda qayta tiklati) va targ'ib etishda folklor-etnografik ansambllarining xissasi salmoqli bo'lmoqda.

Mavsumiy marosim qo'shiqlari o'zbek xalqining uzun tarixiy o'tmishi davomida yuzaga kelgan turli-tuman marosim va urf-odatlar tarkibida uzil-kesil shakllangan bo'lib, ularda xalqning dunyoqarashi, falsafasi, xayotiy voqealarga munosabati, orzu-umidlari, istak-intilishlari, xullas, bir so'z bilan aytganda, ma'naviy dunyosi o'ziga xos aks etadi.

Bizga ma'lum bo'lishicha, mavsumiy marosim qo'shiqlarining eng ko'p namunalarni go'zal baxor fasli va undagi ardoqli, ijtimoiy-madaniy axamiyatga molik xodisa - Navro'z bayramiga bog'lab ijro etilgan ekan.

"Boysun" folklor-etnografik ansambli ana shu toifaga mansub va endilikda ko'prok tarixiy-badiiy qiziqish uyg'otayotgan Navro'z sayli, Lola sayli, Sust xotin, SHox moylar, Arg'umchoq kabi mavsum aytimlarini qayta tiklab, ommabop saxna tomoshalarida ijro etib kelmoqda.

Insonning xayotiy yo'li bilan borliq muhim sana va voqealar xar bir xalqda o'ziga xos tarzda urf-odat yoki marosimlar bilan nishonlanib turilishi an'anaga aylangan. Ana shular sirasiga oilaviy sharoitda o'tkaziladigan ommaviy tadbirlar kiradi. Oilaviy marosimlarning turlari ham kup bo'lib, ular insonga butun umri davomida



doimiy yoʻldosh, xamrox, boʻlib kelgan. Xususan, oʻzbeklarda beshik toʻyi, muchal toʻyi, xatna (sunnat) toʻyi, nikox toʻyi, motam (aza) kabi oilaviy marosim turlari mavjuddir. Ushbu marosimlar garchand "oilaviy" deb atalsa-da, odatda, qarindosh-urugʻlar, qoʻni-koʻshnilar va doʻst-birodarlarning "qatnashishlari evaziga ular ommaviy tus oladi.

Eʼtiborli tomoni shundaki, tuy aytimlari vositasida xalqimizning maʼnaviy goʻzallik xaqidagi teran tushunchalari badiiy mujassam boʻladi. Bunga "Yor-yor" va "Kelin salom"lar yorqin misoldir. Zero bu aytimlar, garchand ularni kelin bevosita kuylamasa-da, xalqimiz tasavvuridagi "iboli kelin" siymosiga bevosita daxldor boʻlib chiqadi.

Afsuski, yaqin oʻtmishimizda "Yor-yor" u "Kelin salom"larning sheʼriy matnlari "taxrir" etilib, qisqartirilgan xolda ijro etildi. Endilikda bu aytimlarning sheʼriy matnlari toʻlaligicha (qayta tiklangan xolda) aytiladigan boʻldi. Bu xol nafaqat "saxna"-da, folklor jamoalarining anʼanaviy respublika koʻrik-tanlovlari va turli festivallarda, balki bevosita nikox tui jarayonida xam kuzatilmoqda.

Xalq musiqa ijodiyotining "nomarosim" aytimlari guruxiga mansub terma, qoʻshiq, lapar, yalla va ashula kabi namunalarga ommaviy axborot vositalari koʻmagida keng tus berilib, turli festival xamda kurik-tanlovlarning oʻtkazib turilishi ham uziga xos anʼana boʻlib qolmoqda. Xuddi shu yoʻnalishga oid ayollar davrasida namoyon buluvchi Fargʻona vodiysi "yallachilari", Xorazm "xalfa"-lari xamda Buxoro "sozanda" dastalarining faoliyati zamonaviy koʻrinishlarda davom etgani xolda, ana shu anʼana davomchilarini musiqa oʻquv yurtlarida (jumladan, Xorazm xalfalar sanʼatining musiqa maktablarida amaliy oʻzlashtirilishi) tayyorlana boshlanganligi ham eʼtiborga loyikdir. Mazkur janrlar xam folklor-etnografik ansambllar eʼtiboridan chetda qolmadi. Aksincha, baʼzi aytim namunalari ansambllar repertuarining asosini tashkil etmoqda. Masalan, "Omonyor" folklor-etnografik ansambli (Fargʻona vodiysi, Qoʻqon shaxri) lapar, yalla va termalarni, "Doston" folklor-etnografik ansambli (Xorazm viloyati, Xiva tumani) dostonlardan parchalar bilan bir qatorda lapar, terma, xalfa qoʻshiqlarini, "Moxi sitora" folklor-etnografik ansambli (Buxoro shaxri) esa qoʻshiq, lapar, yalla xamda sozanda dastalariga xos qoʻshiq-raqslarni maxorat bilan ijro etadi.

SHu bilan birga, qo‘shiq, terma, lapar va yallalarimiz butun O‘zbekiston bo‘ylab o‘tkazil ayotgan katta bayramlarda, ayniqsa, Mustaqillik Navro‘zga bag‘ishlangan tantana va ommaviy sayillarda, taniqli va yosh san‘atkoru-xavaskorlar ishtirokida berilgan turfa konsert-tomoshalarda xam o‘zining yorqin ifodasini topmoqda.

## **1.2. O‘ZBEK MUMTOZ CHOLG’U MUSIQASI VA UNING TARBIYAVIY JIHLATLARI**

O‘zbekiston o‘z davlat Mustaqilligiga erishganidan so‘ng boshqa badiiy ijodiyot soxalari kabi musiqa madaniyati va san‘atida ham chin ma’noda xayotbaxsh o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi.

Xususan, mamlakatimizda yuksak mumtoz kasbiy musiqa namunalarini avaylab-asrash, jonlantirish, ravnaq toptirishga qaratilgan bir qancha ibratli ishlar amalga oshirildi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi tomonidan 1991, 1995 va 1999 yillari o‘tkazilgan maqom ijrochilarining YUnus Rajabiy nomidagi respublika tanlovlari, 1992 yili o‘tkazilgan Juraxon Sultonov, Saidjon Kalonov, Nabijon Xasanov, Komiljon Otaniyozov, Faxriddin Sodikov va Janak SHomurotovlar asarlari ijrochilarining "Bokiy ovozlari", katta ashula va dostonchi-baxshilarning ko‘rik-tanlovlari, "O‘zbeknavo" gastrol-konsert birlashmasining viloyat xokimliklari bilan birgalikda Samarqand, Xorazm va Fargonada uyushtirilgan xoji Abdulaziz Rasulov, Komiljon Otaniyozov, Ma‘murjon Uzokov nomlaridagi "Asrlar navosi" yosh an‘naviy ijrochilar tanlovlari pirovardida e‘tiborga molik yutuqlar qo‘lga kiritildi. SHu asnoda buyuk ajdodlarimiz - "nafosat kuychilari" tomonidan ijod etilgan mumtoz asarlarga qaytadan jon bagishlangandek buldi va bular milliy-ma‘naviy xazinamizdan o‘ziga munosib o‘rin olmoqda.

1997 yildan boshlab ko‘xna Samarqand shaxrida xar ikki yilda o‘tkazilishi an‘naga aylangan "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivali nafaqat respublikamiz, va Markaziy Osiyo mintaqasi doirasida, balki jaxonshumul axamiyatga molik xodisaga aylandi desak mubolava bulmaydi. Zero, Sharq mamlakatlaridan tashqari yana Fransiya, Polsha, Germaniya, AQSH, Angliya kabi Evropa va boshqa qit‘alardan tashrif buyurgan mashxur va taniqli musiqa san‘ati namoyandalari ishtirok etgan mazkur bayramona tadbir bois qadimiy va mushtarak an‘nalar o‘zaro yanada

yaqinlashdi, ijodiy xamkorlikka keng yul ochildi, qolaversa, jaxon xalqlari o'rtasida tinchlik barqarorlik xamjixatlik o'rnatilishi ishiga salmoqli ulush qo'shildi.

Ayni paytda festival bois o'zbek mumtoz kasbiy musiqasini jaxon "saxnasi" uzra targ'ibiga keng yul ochildi. Xususan, O'zbekiston xalq artisti, "Osrarin" mukofoti soxibasi (2001) Munojot Yo'lchieva 1997 yili "SHarq taronalari" I Xalqaro musiqa festivalida birinchi o'rinni qo'lga kiritdi, 1999 yili "SHarq taronalari" II Xalqaro musiqa festivalida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Nasiba Sattorova bosh sovrin — "Gran-Pri"ga sazovor bo'ldi.

1991 yili Typg'yn Alimatov va Munojot Yo'lchieva AQSH da, M. Yo'lchieva 1995 yili Fransiyada, 1997 yili Germaniyada, 1997 yilda Fransiyada chiqarilgan "O'zbekistan. Dutar san'ati" nomida A.Xamidov, SH.Razzoqov va S.Xudoyberdievlarning, 1999 yilda "O'zbekistan mumtoz ashulalari (1940 — 1965 yillar)" kompakt-disklari xam o'zbek mumtoz musiqasi dovrug'ini jaxonga yoyishda salmoqli xissa qo'shmoqda.

Ma'lumki, musiqiy merosimizning eng salobatli, eng sermaxsul va eng ardoqli qismini maqom ijodiyoti tashkil etadi. Uning tarkibiga turli davrlarda bastakorlar tomonidan ijod etilgan xar xil xajmli, turkumli va aloxida-aloxida, shaklan va mazmunan mukammal cholg'u xamda aytim namunalari kirgan.

Bugungi Mustaqil O'zbekistonda maqomotning uch turi-Buxoro maqomlari (yoki "Shashmaqom"), Xorazm maqomlari va Farg'ona— Toshkent maqom yo'llari musiqa amaliyotida joriy bo'lib kelmoqda. Aloxida ta'kid joizki, jonli jarayon bilan yo'g'rilgan maqomchilik an'analari bastakorlik (ijodkorlik) va ijrochilik san'ati bilan bevosita bog'liqdir. Bunda ijodkorlik jabxasi ikki asosiy ko'rinishda namoyon bo'lishi ma'lum bo'lmoqda-biri maqomchilik an'alariga muvofiq yangi namunalarni ijod etishda yana biri maqom yo'llarini ijro etish talqinida ko'zga tashlanadi. Musiqiy ijodiyotning xar ikkala bu soxasi so'nggi yillarda yorqin namoyon bo'lmoqda.

YAqin-yaqinlargacha ulug'vor maqom namunalari ardoqli meros sifatida to'g'ridan-to'g'ri qabul qilinib, endilikda faqat ijro talqinlari orqali yangilanishi, boyitilishi mumkinligi e'tirof etilar edi. Darxaqiqat, ko'p o'n yilliklar davomida jonli amaliyotda xuddi shunday axvol kuzatilgan. Ammo tasavvurlarimiz tez orada

bunchayin keskin o'zgarib qolishi ko'pchilik uchun xech kutilmagan voqea bo'ldi. Bu borada O'zbekiston xalq xofizi, bastakor Fattoxxon Mamadaliev o'z faol ijodkorligi orqali an'anaviy uslubda mavjud namunalarni qayta ishlash, ovoz yoki sozlarga moslashtirish bilan kifoyalanmay, balki, yanada jiddiyrok yangiliklarni kashf etish mumkinligini to'la isbotlashga muvaffaq bo'ldi. Xususan, ijodkor 1994 — 97 yillarda bizgacha muayyan shaklda etib kelgan "Miskin", "Nasrullovi", "Munojot" singari ardoqli cholg'u va ashula turkumlarini qimmatli to'ldirishlar bilan qayta ishladi.

O'zbekiston xalq, artisti, sozanda T.Alimatov. Boz ustiga, F.Mamadaliev yoshlik chog'larida andijonlik zabardast ustoz Umurzoq Polvon Saydalievdan ko'p eshitib o'zlashtirib olgan "Qadimgi Ushshoq", "Zikri Ushshoq", "Umurzoq Polvon Ushshori" kabi noyob maqom namunalarni sadolarda jonlantirdi va shogirdlariga o'rgatdi. SHu bilan bir qatorda ustoz butkul yangi - "Savti Fattox-xon" nomli maqom uslubidagi ashula turkumini ijod qildi.

O'zbekiston xalq xofizi, atoqli sozanda va bastakor Orifxon Xotamov "Ushshoq", "Girya" turkumlarini yangi ashula yo'llari bilan boyitdi. Buning natijasida hozirgi zamon bastakorligida asl - an'anaviy musiqiy tafakkur yulida xam yangi-yangi noyob asarlar yaratish mumkinligi amalda isbotlandi.

Maqomlarda mujassam bo'lgan ma'naviy-badiiy go'zalliklarni jonli jarayonda namoyon etish va ularni tinglovchiga etkazib berishda ijrochilik san'ati qariyb xalq qiluvchi ahamiyat kasb etishi ma'lum. Binobarin, qadimiy va doimo navqiron maqomlarning asrlar osha xayoti va rivoji, bir qator omillar qatorida, shubxasiz ustoz-xofiz va sozandalarning yuksak ijrochilik maxorati bilan xam uzviy borliqdir.

O'zbek mumtoz maqom ijodiyoti va ijrochiligi soxasida kuzatilayotgan yangi jarayonlarning yorqin ifodasini keksa, etuk xamda yosh avlodga mansub o'nlab san'atkorlar, ajoyib xalq xofizlari-yu taniqli xonanda, sozanda va bastakorlar faoliyatida kuzatish mumkin. Bulardan atoqli sozanda, O'zbekiston xalq artisti, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni soxibi Turg'un Alimatovning benazir ijrochilik san'ati va M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasida ustozlik faoliyatining samarali davom etishi, uning bevosita ishtirokida endi nainki respublikamiz bo'ylab, balki xorijiy mamlakatlarda, jumladan Fransiya, Amerika

Qo'shma SHtatlarida o'zbek milliy mumtoz musiqamizga bag'ishlangan qator konsertlar berishi, u erda CD lazer disklarga muxrlangan yozuvlarining chiqarilishi muxim ahamiyat kasb etdi.

Bu o'rinda O'zbekiston xalq xofizlari, atoqli xonanda, sozanda va bastakor Orifxon Xotamov va Fattoxxon Mamadaliev, O'zbekiston xalq artisti, sozanda va bastakor Fanijon Toshmatov, O'zbekiston xalq xofizlari Muxammadjon Karimov, quvondik Iskandarov, Xasan Rajabiy, O'zbekiston xalq artisti, xofiz Otajon Xudoyshukurov, O'zbekiston xalq artisti, sozanda va bastakor lar Rulomjon Xojikulov, Abduxoshim Ismoilov, O'zbekiston xalq artistlari Munojot Yulchieva va Maryam Sattorova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, sozanda va bastakor O'lmas Rasulovlarning ijodkorona ishlari ayniqsa ibratli deb baxolanishi mumkin. Xususan, bu ustoz-san'atkorlar oldingi safdoshlari — Yunus Rajabiy va Riski Rajabiy, Faxriddin Sodiqov, Xoji Abdulaziz Rasulov, Domla Xalim Ibodov, Matyusuf Xarratov, Komiljon Otaniyozov va boshqa singari maqomlar xamda bastakorlik ijodiyotiga mansub asarlarning betakror ijroviy talqinlariga erisha oldi va bu yo'nalishda o'ziga xos ijro va ijod uslublarini mushtarak etgan maktabga asos soldilar.

SHu bilan birga "ijodiy yondashuv tamoyili" maqomlarni jamoaviy (ansambl) tarzda ijro etishda xam kuzatilmoqda. Bu borada eng avvalo maqom an'anaviy ansambllarining tarkibi e'tiborni o'ziga tortadi.

Manbalardan ma'lumki, o'tmishda maqom ansambli tarkibida ikkita tanbur, bitta dutor, bitta qubiz, g'ijjak yoki sato, doyra va bir necha jurxon xonandalar bo'lishgan. SHuningdek an'anaviy ansambllarning maxalliy turlari ham shakllanib ulgurgan. Xususan, Buxoro an'anasida tanbur, nay va doyra, Farg'ona—Toshkent uslubida tanbur va dutor, Xorazmda esa dutor, bulamon, g'ijjak va doyra jursozligi joriy bo'lgan.

Hozirgi kunga kelib respublikamizda maqom ansambli ijrochiligi an'analari yangi shakllarda o'z xayotini davom ettirmoqda. Chunonchi, respublikada etakchi ijodiy jamoa bo'lgan O'zbekiston Teleradiokompaniyasi qoshidagi Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambli ushbu mumtoz ijrochilikda muxim o'ringa ega tanbur va doira cholg'ulari mavqeini saqlagan xolda yana ud va qonun kabi sozlardan (g'ijjak nay, qo'shmay, chang, rubob qatorida) keng foydalanib kelmokda. Ansambl

repertuaridan asosiy o‘rin olgan Shashmaqom turkumi va Farg‘ona—Toshkent maqom yo‘llarini ijro etishda ustoz san‘atkorlar Yunus Rajabiy va Faxriddin Sodiqovlardan meros qolgan badiiy an‘analar ijodiy davom ettirilmoqda. Bu xol, masalan, 1980 yillar oxirida ansambl taniqli sozanda A. Ismoilov raxbarligida Buzruk maqomining Nasr (aytim) bo‘limi turkumlarini o‘ziga xos ijro talqinida aks ettirgan gramplastinka yozuvlarida yaqqol namoyon bo‘lgan edi. Ayni paytda amalga oshirilgan ushbu ijodiy mehnat maqomlarni magnet tasmlariga, gramplastinkalarga, qolaversa zamonaviy lazer disklariga yozib olishdek benixoya muxim tadbirlarning yangi davri boshlanganligiga dalolat etadi. Binobarin, Rost, Navo, Dugox, Segox va Iroq maqomlarining, qolaversa Farg‘ona—Toshkent maqom yo‘llarining yangi ijro talqinlarini xam lappaklarga muxr etish ishini galdagi ijodii vazifalardan biri sifatida belgilash mumkin. Zero ansamblning ko‘p yillar davomida orttirgan ijro malakasi va jamlagan ijodiy quvvati bu kabi vazifalarni xal etishga etarlidir.

Ma‘lumki, maqom san‘ati tarixining uzun o‘tmishi davomida har biri uziga xos uslubli (maxalliy) ijro maktablari qaror topgan edi. SHulardan eng yirik markazlari qatorida Buxoro, Samarqand, Xorazm (Xiva), Qo‘qon, Xo‘jand, Andijon, Toshkent maktablarini qayd etish mumkin. Quvonarli tomoni shundaki, endilikda bu maktablarning unutilayozgan ilg‘or ijodiy an‘analarini qayta tiklash, davom ettirish va rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yuzaga keldi. Xususan, Buxoro—Samarqand maktablarida SHashmaqom aytim yo‘llarini turk-o‘zbek Bazaliyoti (Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Mashrab va boshqalar) bilan birga fors-tojik tilida bitilgan g‘azallar (Rudakiy, Tabriziy, Xofiz, Jomiy, Bedil va boshqalar) asosida "o‘qish" an‘anasi mavjud edi. Bu an‘ana va shu voxa uslubiga xos boshqa badiiy jixatlar Buxoroda faoliyat ko‘rsatayotgan Maqomchilar ansambli, Buxoro san‘at bilim yurti talabalar ansambli, Samarqanddagi an‘anaviy ansambllar faoliyatida, shuningdeq Farg‘ona — Toshkent maqom ijro yo‘llariga doir ayrim ko‘rinishlar Toshkentda Ulmas Saidjonov raxbarligidagi ansambl, M. Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasi qoshidagi "Tavois" yoshlar ansambli, vodiya mashxur "Anor", "Sarvigul", "Meros" kabi ansambllar tomonidan xayotga tadbiiq qilinmoqda.

Xorazm maqomlariga mansub ko'xna badiiy an'analar Xorazm viloyat televideniesi qoshidagi Xojixon Boltaev nomidagi Maqom ansambli (asoschisi Ruzimat Jumaniyozov, badiiy raxbari Bozorboy O'rinov) tomonidan qayta tiklandi. Xususan, ansambl o'zining 1980 yillarning oxiridan to 1990 yillarning o'rtalariga qadar davom etgan faoliyatida Xorazm maqomlaridan Rost, Buzruq Navo, Dugox va Segox aytm yo'llarini an'anaviy ijrochilik asosida sadolantirishga xamda ularni magnit tasmlariga tushirishga muvaffaq bo'ldi.

SHashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg'ona—Toshkent maqom yo'llari ilg'or ijrochilik an'analarini namoyon etish — poytaxtimizda xar to'rt yilda bir marotaba muntazam o'tkazilayotgan maqom ijrochilarining YU.Rajabiy nomidagi Respublika tanlovlarida muxim tus olmoqda.

Xususan, tanlov Nizomiga ko'ra sozanda raqobatchilar birinchi bosqichda SHashmaqom Mushkiloti cholg'u bo'limidan Tasnif, Tarje', Gardun kuylarini, shuningdeq Xorazm maqomlari va Farg'ona — Toshkent maqom yo'llaridan bir muxtasar turkumini ijro etishlari shart bo'lgani e'tiborlidir.

Tanlovning ikkinchi bosqichiga o'tgan sozandalar SHashmaqomning Nasr bo'limidan Talkin va Nasr shu'balarini (taronalari bilan), shuningdek Savt yoki Murulcha shu'balari shoxobchalaridan Talkincha, Qashqarcha, Sokiynoma, Ufarlaridan birontasini va Mushkilot bo'limidagi Muxammaslardan birini sadolantirishi kerak. Va, nihoyat, uchinchi bosqich "bellashuvi"da SHashmaqom Nasr bo'limidagi Saraxborlardan biri (barcha taronalari bilan), Mushkilot bulimidan esa Sakil kuylaridan biri xamda sozanda ixtiyor etgan asar ijro etilishi kerak.

Tanlovda ishtirok etuvchi xonandalar ham maqomotning qariyb barcha yo'llaridan namunalar ijro etishlari shart. Jumladan, birinchi bosqichda SHashmaqomning Talqin yoki Nasr shu'basi (taronalari bilan), ikkinchi bosqichda Savt yoki Murulcha shu'balari barcha shoxobchalari bilan, shuningdek Xorazm maqomlaridan yoki Farg'ona — Toshkent maqom yo'llaridan Chorgox, Dugox —Xusayn, Bayot, Bayoti-SHeroziy kabi bir muxtasar turkum, uchinchi bosqichda esa SHashmaqom Saraxborlaridan biri (taronalari bilan) va xonanda ixtiyor etgan asar ijro etiladi.

Diqqatga sazovor tomoni shundaki, 18 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan maqom ijrochilarining ushbu tanlovida ishtirok etuvchi sozanda va xonandalar soni tobora

ortib borishi qayd qilinmoqda. Masalan, 1983 yilda ilk bor o'tkazilgan maqom ijrochilarining I - Respublika tanlovida jami 38 sozanda va xonanda qatnashgan bo'lsa, 1999 yili bo'lib o'tgan V Respublika tanlovida bu ko'rsatkich 70 dan ortib ketdi.

Shu bilan birga, mazkur tanlov doirasida asosan yakka ijrochilar qatnashib kelgan bo'lsalar, so'nggi yillarda ansambl ijrochiligiga xam keng o'rin berila boshlandi. Jumladan, 1995 va 1999 yillarda o'tkazilgan Respublika tanlovlarida yakkanavoz sozanda va yakkaxonlar katorida cholg'u ansambllari ham ijodiy bellashuvda qatnashdilar. Shuningdek ushbu tanlov miqyosida hozirgi maqomchilikda mavjud deyarli barcha ijrochilik maktablari bilan yaqindan tanishish va ulardagi ustuvor tamoyillarni belgilash imkoniyatlari yuzaga kelmoqda. Zero bu ijodiy musobaqada Toshkent, Xorazm, Buxoro, Samarqand, Farg'ona vodiysi kabi yirik maqom "markazlari", so'nggi yillarda esa Tojikistonlik maqomchilar ham ishtirok etmoqdalar. Albatta, bu kabi tanlovlar nafaqat maqom ijrochiligi yuksalishida, balki shu barobarida mumtoz san'atimizni targ'ib etishda ham ahamiyatlidir.

Mubolag'asiz aytish mumkinki, bugungi kunda qariyb barcha viloyatlarda turli tarkibga ega an'anaviy maqom ansambllari yoki xar xolda maqom namunalarini ijrosini "chetlab o'tmayotgan" ijodiy guruxlar faoliyat ko'rsatmoqda. Va, xatto, umumiy ta'lim maktablarida ham folklor guruhlari qatorida maqom ansamblini tuzish say'i-xarakatlari muayyan reja va dastur asosida boshlab yuborildi.

Qayd etilayotgan bu ijobiy xolatlar maqom ijrochiligi soxasi tobora keng tus olayotganligini, bu yuksak san'at namunalaridan xalqimizning turli ijtimoiy guruxlarini baxramand etish imkoniyatlari mavjudligini, shu jumladan, so'nggi asrlarda maqomchilik an'analari ancha susaygan voxalarga (masalan, Surxondaryo, Qashqadaryo va boshqalar) ham bu san'at yoyila boshlaganligini ko'rsatadi. Bu quvonarli xol, albatta.

So'nggi paytlarda maqomlarni, xox katta, xox kichik shaklda bo'lsin, turkum tarzida ijro etish an'anasiga doim ham rioya qilinmayotganligi va aksincha, uning tarkibiy qismlarini konsert saxnalarida alohida (yakka ko'rinishda) ijro etish tamoyili tobora odatiy tus olayotganligi ko'zga tashlanmoqda. Ma'lumki bu salobatli san'atning teran mazmun-ma'nolari turkum darajasidagina o'zining barcha (boshlang'ich, o'rta



va yakuniy) bosqichlarini to‘la ifoda eta oladi. Shu bois ustozlar maqomlarni imkon boricha turkum xolda ijro etib kelganlar.

Asrlar davomida xalqimiz qalbidan mustaxkam o‘rin olib, uning jon ozig‘i bo‘lib kelgan mumtoz maqomlar xozirda shakllanayotgan milliy mafkuramiz uchun xam bebaxo ma‘naviy qadriyatlardan ekanligini unutmash kerak. Binobarin, ularning ommaviy tashviqotiga va, ayniqsa radio, televidenie vositalarida keng va malakali targ‘ib etish ishiga yanada jiddiyroq e‘tibor berish zarur.

Mumtoz monodiyaga mansub janrlar qatorida katta ashula va suvora namunalarining yangi davrdagi xayoti ham alohida diqqatni o‘ziga tortadi. Xar biri o‘ziga xos bu noyob aytim turlarining maxalliy musiqiy an‘analar doirasida tutgan o‘rni ko‘p jixatdan o‘zaro o‘xshash—katta ashula Farg‘ona-Toshkent ashulachilik an‘analarining yangi sifat bosqichidagi rivoji va alohida mumtoz ko‘rinishi bo‘lsa, suvora — Xorazm ashulachilik san‘atining favqulodda muxim va noyob qirralarini o‘zida mujassam etgan mukammal aytim namunasidir.

Tabiiyki, turli musiqiy uslub fazilatlari teran in‘ikos etgan bu aytimlar ijrochiligi yuqori badiiy saviya, maxsus amaliy bilim va malakalar bilan xosil bo‘ladi. Ayni paytda mazkur janrlarning bevosita yashash shakli ham bo‘lgan bu kabi ijodiy talablar amaliyotchi mutaxassislar e‘tiboridan chetda qolmadi. Alalxusus, so‘nggi o‘n yillik davomida katta ashula an‘analari F.Mamadaliyev, M.Tojiboev, M.Yulchieva, R.Qurbonov ijro talqinlarida, suvora aytish an‘analari esa Q.Iskandarov, O.Xudoyshekurov, R.Kurbonov va boshqa xofizlar san‘atida shuningdek katta ashula va suvora ijrochilarinpng turli darajadagi (respublika-viloyat) ko‘rik-tanlovlarida kashf etilgan iste‘dodlar ijrosida o‘z jilolarinpng to‘la-to‘kis namoyon etdi.

Musiqiy merosimizning maxsus bilim va malaka talab etuvchi yana bir ijodiyot turini dostonchilpk an‘analari tashkil etadi. Adabiy-musiqiy ijodiyotning eng qadimiylaridan biri bo‘lgan o‘zbek dostonchiligi boshqa Markaziy Osiyo xalqlari, qolaversa jahon turkiy xalqlari dostonchilpk merosi bilan uzviy bog‘liq xolda rivoj topib kelgan.

1999 yili O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan diyorimizda "Alpomish" dostonining 1000 yillik tantanalari bo‘lib o‘gdi. Shu

munosabat bilan mamlakatimizda qator tadbirlar o'tkazildi. Xususan, "Alpomish" dostonining turli variantlarni, shu jumladan, F.M.Karomatli va To'raxoji Mirza tomonidan tayyorlangan Qoraqalpoq versiyasi kuy-aytimlari bilan nashr etildi, turli miqyosdagi ilmiy anjumanlar o'tkazildi. Shuningdek Termiz shaxrida "Alpomish"—boqiy asar" deb nomlangan O'rta Osiyo respublikalarining baxshi-shoirilari va okinlari ishtirokida I Xalqaro ko'rik-festival bo'lib o'tdi. Jami 80 dan ziyod baxshi-oqinlar qatnashgan ushbu ko'rik-festivalda boysunlik SHoberdi baxshi Boltaev oliy o'rin sovrindori bo'ldi. "Yosh baxshi-shoirilar va oqinlar" bo'yicha oliy o'rinni Xorazm viloyati, Xiva shaxri "Doston" folklor-etnografik ansambli (badiiy raxbari Norbek baxshi Abdullaev) egalladi.

Yangi davrda baxshichilik san'atini rivojlantirish, milliy qadriyatlarimizni e'zozlash va o'zbek xalq og'zaki ijodiyotini keng targ'ib etishdagi, o'z ijodi va ijrochilik faoliyati bilan xalqimizni, ayniqsa yoshlarni ko'p ming yillik madaniyatimiz sarchashmalaridan baxramand qilishdagi salmoqli xissalari hamda Vatan Istiqloli va shon-sharafini ulug'lash yo'lidagi ijodiy faoliyatni rag'batlantirish maqsadida 2000 yil mart oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus Farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasi xalq baxshisi" faxriy unvoni belgilandi. Birinchilar qatorida bu yuksak unvonga SHoberdi Boltaev, Jumaboy Bozorov va Abdulla Kurbonnazarovlar sazovor bo'lishdi.

O'zbekistonda "ustoz-shogird" kabi qadimiy an'analarga tayangan bir necha dostonchilpk maktablari, mashxur ijrochilik markazlari mavjud. Ular asosan Surxondaryo, Qashqadaryo, Farg'ona va Xorazm voxalarining xar xil xududlarida joylashgan. Hozirgi paytda dostonchi-baxshilarning turli darajada o'tkazilayotgan ko'rik-tanlovlari bu ko'xna ijodiyotni rag'batlantirishga, ayrim unutilayotgan an'analarni qayta tiklashga xizmat qilishi mumkin. SHu bilan birga, qadimdan dostonchilpk an'analari mavjud xududlarning musiqiy bilim yurtlarida ushbu soxa ijrochiligini amaliy o'zlashtirgan dostonchi baxshilar (ya'ni ixtisoslashgan professional ijrochilar)ni etishtirish maqsadga muvofiq keladi. Bu borada Xorazmda amalga oshirilayotgan boshlangich chora-tadbirlar ibratlidir.

SHo'rolar tuzumi davrida musiqiy ta'lim-tarbiya soxasida olib borilgan mafkuraviy "raxnamolik" oqibatida o'zining milliy kuy-ohanglaridan birmuncha begonalashgan,

qator avlodlar ichida milliy o'zligini unutayozgan yigit-qizlar xam voyaga etdi. Oqibatda milliy qadriyatlarimiz uchun yot, salbiy xolatlarni yuzaga chiqaradigan yo'nalishga chatishgan ayrim uslublar nish urdi.

Eng so'nggi yillarda o'zbek xalq musiqiy merosini o'rganishga, o'zlashtirishga va targ'ib etishga, demakki yanada ravnaq toptirishga qaratilgan qator e'tiborli ishlar amalga oshirildi. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi 1-Prezidenti I.Karimovning "Respublikada musiqiy ta'limni, madaniyat va san'at o'quv yurtlari faoliyatini yaxshilash to'g'risida"gi 1996 yil dekabr oyidagi Farmoni muxim ahamiyat kasb etdi.

Endilikda milliy musiqa merosimiz maxsus qator fanlar sifatida madaniyat va san'at ta'lim tizimiga joriy etila boshlanganligini ta'kidlash kerak. Ma'qul va manzur tomoni shundaki, milliy musiqamiz nafaqat maxsus bilimgoxlarda (madaniyat, san'at oliy va o'rta o'quv yurtlari, musiqa va san'at maktablari), balki umumta'lim maktablarining o'quv xamda ta'lim-tarbiya tizimidan ham munosib o'rin ola boshladi<sup>3</sup>.

Bu o'rinda mumtoz musiqaga doir olimlarimiz tomonidan bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari, chop etilayotgan monografiya, o'quv-uslubiy qo'llanma va darsliklar ham e'tiborga molikdir. Xususan, atoqli maqomshunos olim I.R.Rajabovning "Maqom asoslari" o'rta va oliy o'quv yurtlari uchun metodik qo'llanmasi (1992), R.Yunusovning "Maqom va murom"ga bag'ishlangan ilmiy monografiya (1992) xamda "O'zbek xalq musiqa ijodiyoti" o'quv-uslubiy qo'llanmasi (2000), A.Nazarovning "Forobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida" (1995), O.Ibroximovning "Maqom va makon" (1996), B.Matyokubovning "Xorazm doston ijrochiligining zarxat saxifalari" (1999), F.Mamadaliyevning "Milliy musiqa ijrochiligi masalalari" (2001) nomli ilmii risolalari nashrdan chiqdi<sup>4</sup>. Shuningdek 1993 yili Abdurauf Fitratning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi", 1997 yili Abduraxmon Jomiyning "Risolai musiqiy"si (o'zbek tiliga ugirilgan xolda), 1998 yili Mulla Bekjon Raxmon o'g'li va Muxammad Yusuf Devonzodalarning "Xorazm musiqiy tarixchisi" risolalari qayta nashr etildi.

**2-BOB. YOSHLARDA O‘ZBEKISTON XALQ ARTISTILARI TURG‘UN ALIMATOV VA  
ORIF ALIMAHSUMOVNING SOZANDALIK, HOFIZLIK, USTOZLIK, HAQIDAGI  
FIKRLARINI O‘RGANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**2.1. MAQOMLARNING MUSIQIY ILDIZLARI, TURG‘UN ALIMATOV MISOLIDA**

“Turg‘un Alimatov haqli ravishda zamonamizning buyuk sozandasidir. U o‘zbek an’anaviy musiqasi tarixidagi yangi yo‘nalish bo‘lib kirgan ijro uslubini yaratgan. Turg‘un Alimatovning tanburchilik maktabi o‘zining tashqi (cholg‘uning tutishi) va ichki (zarblar, tovush chiqarish usuli, nola, kuy talqini va shu kabilar) belgilari bilan boshqalardan ajralib turadi”.

Ustozni o‘zlari “Men dutorchidan etishib chiqqan tanburchiman”degan edilar. Haqiqatdan ham sozandaning birinchi o‘zlashtirgan cholg‘usi dutor bo‘lgan. Uni mustaqil radio va plastinkalarini tinglab, o‘ziga yoqqan asarlarni eslab qolish yo‘li bilan o‘rgangan. Keyin shu kuylarni tanburda ijro etishga harakat qilgan. Lekin dutor bir umrga diliga yaqin cholg‘u bo‘lib qolgan.

Bir tomondan,uning uslubi milliy ruh bilan sug‘orilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ijodiga nisbatan an’anaviy so‘zi ma’lum darajada majoziy ma’noni kasb etadi. Gap shundaki, musiqachi tom ma’noda ustoz ko‘rmagan.Turg‘un Alimatovning asosiy murabbiysi- qulog‘i, noyob eshitish qobilyatidir. Ustoz ko‘pgina ustoz sozandalar, radio orqali beriladigan mashhur qur‘on hofizlari hamda o‘z davrida dong taratgan hind filmlarining kuy va qo‘shiqlarini diqqat bilan tinglab, o‘z hissiyoti orqali tahlil etib, tez o‘zlashtirdi.

Turg‘un Alimatov asarlarida yuksak badiiy estetik did hukumronlik qiladi. Ustoz yaratgan kuylar ko‘pincha radio orqali eshittiriladi, kino musiqasi, televidniya, teatr tomosha sahnalarida keng qo‘llaniladi. Bu kuylar xalq ichiga, qon – qoniga singib ketgan qadrdon kuylar bo‘libqolgan. xalq orasida shunday gap bor “sozanda 40 yilda kamolga etadi”. Bazan esa haqiqiy san‘at yo‘liga chiqish uchun undan ham ko‘p vaqt kerak ekan diydilar ustozning o‘zi.

An’anaviy ijrochilikda musiqiyasarning ta’sirchanligi inson ruxiyatiga xush kayfiyat baxsh etishi, ma’naviy ozuqa berishi, kuyning milliy ijro bezaklari bilan to‘la qonli

ifoda etilishidir. Buning uchun sozanda yuksak musiqiy did va mahoratga ega bo'lishi lozim.

Jumladan, tanbur sozi ijrochiligida keng qo'llaniladigan turli nola, qochirim, zarb kabi musiqiy bezaklar asar ijrosidagi etuklikni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Bugungi kunda tanbur sozi ijrochiligida yorqin yulduz bo'lib, o'zining qalb qo'ri, sehrli barmoqlari bilan chertgan sozidan xush navo taratib, yuraklarni zabt etgan "tilla noxun" sohibi, O'zbekiston xalqartisti, professor Turg'un Alimatovni o'zbek milliy musiqa ijrochiligida betakror uslub (maktab) yaratgan san'at darg'alaridan biri, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Turg'un Alimatov (1921-2008) yil 20-yanvarda Toshkent viloyatining Chuvalachi qishlog'ida xizmatchi oilasida dunyoga keldi. Bolalik chog'idanoqqalbida musiqaga ishtiyoq va havas uyg'onishiga padari buzrukvori Alimat otaning dutor cholg'usini nihoyatda yoqimli ijro etishi sabab bo'ldi. Turg'un o'rta maktabning 4-5-sinflarida saboq olayotgan paytlarida musiqa cholg'ularidan ilkbor dutor chalishni o'rgana boshladi. Chunki ularning honadonida ham ko'plab honadonlarda bo'lgani kabi dutor doimo uyning to'rida osig'liq turardi. San'atkorning nabirasi va shogirti Abror Zufarov u haqda shunday diydi: "1930-yillarda xalq orasida mashhur bo'lgan "Fabrika" nomli qo'shiq bobom o'rgangan birinchi musiqiyasar bo'ladi. O'sha kezlari u radio to'lqinlari orqali muntazam yangragan "Jigarpora" kuyi bilan birga "Dilxiroj", "Munojot" kabi xalq kuylarini chalishni ham qunt bilan o'rgandi".

Yosh Turg'un maktabning 7-10-sinflarida o'qib yurgan kezlarda musiqa to'garagi xonasida osig'liq turadigan tanbur, dutor, nay, g'ijjak kabi cholg'ularni ko'rib zavqlanardi. To'garak raxbari Halim aka yosh sozandaga yaxshi maslaxatlar berdi. U "hozircha qaysi sozga mehring tushgan bo'lsa o'rganib qo'yaver, keyinchalik qay birini tanlash ko'nglingga bog'liq. Bir necha cholg'uni chala boshlash odamga zarar qilmaydi" deb, Turg'unga gijjak va tanbur kabi sozlardan dars berdi.

Turg'un Alimatov yoshligidan Hoji Abdulaziz ijodiga ham qiziqar edi. Ustoz Hoji Abdulaziz haqida shunday degan edilar: "Men bolaligimdan Hoji Abdulaziz san'atiga mehri quyganman. "Bebokcha", "Gulzorim", "Bozurgoniy" platsinkalarini 30 yillardan buyon eshitaman. Bu ijrolarni hozirham tinglab, har safar nimadir

topaman. Ba'zan taajub qilaman, nodir san'atning qaysi bir tomoniga ko'proq hayratlanishni uylab qolasan kishi, yoshi 80 ga etgan hofiz ovozining tiniqligami, dutor sadolarining siru-asrorlarigami yoki bu ikkinchi amalning bir odam tomonidan barobariga bajarilayotganidan Hoji buvaning sozandaligi mahoratidan san'atdan ustun turadigan, xudo yuqtiradigan bir narsa. Hoji aka men butun umrim bo'yi intilayotgan komolot ramzi. Musiqa tarixida bunday sozandalar sanoqli".

Texnikumda olgan saboqlari Turg'un Alimatov hayotida muhim rol o'ynadi. Usha kezlari radiodan ko'pincha Yunus Rajabiy raxbarligidagi ansanbil ijrosidagi kuy va qo'shiqlar yangrardi. Turg'un Alimatov bu turkum eshittirishlarni birortasini ham qoldirmasdan tinglar va g'oyibona o'rganardi. Mabodo kuylarini o'rganishda qiyinchilik tug'lsa darhol texnikum o'qituvchilariga murojaat qilar edi. Shu sababli musiqa merosimizda mavjud bo'lgan ko'plab asarlarni o'zlashtirishga erishdi.

Texnikumda o'qishni tugalash arafasida sozanda sifatida shakllanib dutor, gijjak hamda tanbur chalishning nozik sirlaridan voqif bo'ldi.

Turg'un Alimatov 1942-43yillarda Toshkentdagi yosh tomoshabinlar teatriga ishga qabul qilindi. Bu erda ansanbl rahbari Mamadaziz Niyozov unga g'ijjakchi sozanda bo'lib ishlashni taklif etdi. Ansamblda birgina g'ijjakda emas, balki tanbur va dutorda ham vaqti-vaqti bilan kuylar ijro etishga to'g'ri kelardi chunki u davrdagi ijodiy jarayon shuni talab etardi.

Shundan so'ng Turg'un Alimatov bir yil mobaynida Muqimiy nomli musiqali drama teatrida sozandalik faoliyatini davom ettirdi. U teatrdagi faoliyatini juda ham samarali o'tganligini eslab shunday deydi: "Men o'ttiz yil radioda ishladim, bir yil Muqimiy teatrida. Lekin o'ttiz yil ichida, o'sha bir yilda olgan ma'naviy boylikni ololmadim. Chunki u kezlari teatrdagi zabardast san'atkorlar :To'xtasin Jalilov, Jo'raxon Sulstonov, Ma'murjon Uzoqov, Oxunjon Qiziq, Xolxo'ja To'xtasinov kabi buyuk insonlar davrasida edim".

Ustozlar bilan jonli muloqot san'atning yo'nalishlaridan bahramand bo'lishdan Turg'un Alimatov faoliyatida muhim o'rin egaladi.

Turg'un Alimatov radiokomitetda sozandalik qilgan kezlari akadimik YUNUS Rajabiy raxbarligidagi maqom ansanbli bilan SHashmaqom cholg'u-ashula turkumlari, Toshkent-Farg'ona maqom ashula yo'llari, vohalarga mansub yirik

cholgʻu yoʻllari hamda zabardast bastakorlarning asarlarini munggardish (platsingka) ga darj etishda, radio musiqiy yozuvlar “oltin xazina”sidagi magnit tasmlariga tushirishda faol ishtirok etib, “tilla nohun” nomini olishga sazovor boʻldi. Turgʻun Alimatov “ Moskva, 1971; Olmaota, 1973; Samarqand, 1978, 1983, 1987 ” va boshqa xalharo anjuman, kansertlarda qatnashdi. Turgʻun Alimatov milliy sozanda sifatida birinchilar qatori chet elda ham etibor qozondi. Uning (Amerikada, Fransiya va Germaniya) shaharlaridagi chiqishlari kattagina olqishlarga sazovor boʻldi.

“ Fransiyaning mashhur “Assora” firmasi Turgʻun Alimatovning tanbur, dutor va satoda ijro etgan kompakt-diskini chiqardi”.

Turgʻun Alimatov ijrochilik uslubining shakillanishida bir qator ustozlarning sanʼati muhim omil boʻlgan desak oʻrinli boʻladi. Risqi Rajabiy, Joʻrabek Saydaliev, Qayum Shomurodov, Asadqori Lutfullaev, Orif Qosimov, Mahmud Yunusov kabi ustoz sozandalar shular jumlasidandir.

Joʻrabek Sayidalev ijrosidagi “Payravi asar”, “Jigarpora”, “Surnay Navosi” kabi kuylar Turgʻun Alimatov qalbida chuqur iz qoldirgan. Ayniqsa, undagi “yakka zarb” ga asoslangan ijro uslubi oʻziga xos tomonlari bilan ajralib turadi. SHu bilan birga, Joʻrabek Saydaliev talqinida “nola”, “kashish” mayda notalarda esa koʻproq “gili-gili” kabi anʼanaviy ijrochilikda qoʻllaniladigan bezaklarni uchratish mumkin.

Asadqori Lutfullaev ijro uslubining oʻziga xosligi asosan “pirrang” zarbini nihoyatda ravon va yoqimli ifoda etilishidadir. Bunday uslub ijroni yanada jozibali chiqishiga sabab boʻladi.

Rizqi Rajabiy, Qayum Shomurodov kabi ustoz sozandalarning ijro uslublarida esa noxunni yuqoridan pastga chertish kuzatiladi.

Turgʻun Alimatov ustozlaridan shu singari amallarini qunt bilan oʻrgandi. Ijrochilik sohasida koʻp yillik mehnat va izlanishlar undagi oʻzida xos uslubni yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Turgʻun Alimatovning ijro uslubida nohunning pastdan yuqoriga harata chirtish alohida ajralib turadi. Bunday amal tanburda chiqayotgan ovozni yanada mayin, yoqimli boʻlishini taʼminlaydi. Bu borada Turgʻun AlimatovSHunday deydi: “Tinglovchiga yakka noxun ham kerak. Lekin, orasida pirrang qoʻyilsa yanada

chiroyliroq bo‘ladi. Bir san’atga yana bir san’at qo‘shilgan bo‘ladi. Keyin bir usulda, bir nohunda yursa bir yoqlama bo‘lib qoladi”.

Turg‘un Alimatov o‘z ijro uslubini shakillanish jarayonida musiqiy merosimiz namunalari orasidan turli sur‘at va xususiyatidagi kuylarini tanlab olib, ularni me‘yoriga etkazib chalishni mashq qildi.

Mungli kuylarga chuqurroq „nola, „kashish, „molish, „rez tez sur‘atli quvnoq kuylarga „pirrang, „teskari zarb, „ufor zarb va mayda zarblar ishlatib, musiqiyasarlarni yanada jozibali bo‘lishga erishdi.

Turg‘un Alimatov ijrochilik faoliyati davomida musiqiy merosimizda mavjud ko‘plab asarlarni o‘z ijro uslubida talqin etib, ularga yangidan hayot bag‘ishladi. Bu kuylar xoh tanbur, xoh dutor, xoh g‘ijjak bo‘lsin yagona ijro uslubiga asoslangan. Bunga „Navo, „CHorgoh, „Eshvoy, „Segoh, „Nasri segoh, „Ufori segoh, „Samarqand ushshog‘i, „Giryay, „Surnay navosi, „Rohat, „Eshvoy kurt, „qo‘shchinor, „Gulyorxon va bilakuzuk, „Jigarpora va payrovi asal”, “Tanovar”, “Nola”, “Munojot”, “Nasrullo”, “Ajam”, “Navro‘zi Ajam”, “Ko‘ygay”, (YUNUS Rajabiy), “Ey sabo” (Dono Zokirov), “Gulzorim”, “Bozurgoniy” (H.A.Abdurasulov), “Yolg‘iz” (T.Jalilov) kabi durdona musiqiy asarlar misol bo‘la oladi. “Ovoz rejissyori N.Hasanov yordamida yakka sozlar (Dutor-Tanbur, dutor-sato, tanbur-sato-dutor va boshqalar)da o‘ziga xos yakkanavoz “ansanbl” tarzda ijro etgan cholg‘u kuylari 10 dan ortiq gram plastinkalarda chiqarilgan”.

1994- yilda Turg‘un Alimatov O‘zbekiston davlat konservatoriyasi an‘anaviy ijrochilik kafedrasining professori lavozimida yosh sozanda talabalarga tanbur, sato va dutor cholg‘ulari sinfi bo‘yicha saboq berdi. Ustozning bir qator shogirtlari ansambllarda, oliy va o‘rta maxsus musiqa (san‘at) bilim yurtlarida saboq berdi.

O‘zbekiston xalqhofizlari Hasan Rajabiy, Mahmud Tojiboev sozandalar; Abdulla Umarov, Alisher Alimatov, Asror Aslonov, Abror Zufarov, Toyir Qo‘ziev, Shuhrat Nabiyev, Ibrohim Samadov, Adham Ismoilov, Shuhrat Razzoqov, Muhammadjon Mamadqulov kabi iste‘dod sohiblari shular jumlasidandir.

“Turg‘un Alimatovning O‘zbekiston san‘atiga qo‘shgan hissasi uchun yurtboshimiz tomonidan 1997- yil “ Buyuk xizmatlari uchun “ ordeni bilan mukofotlandi”. “



Turg'un Alimatovning birinchi "Buyuk kuylar" deb nomlangan albomi 2008 - yilda chiqarildi".

Malumki, tanbur cholg'usi sozandalar tomonidan azaldan yakka soz sifatida ijro etib kelingan. XX asirning 30-yillaridan tanburda sato, dutor vag'ijjak cholg'ulari bilan birgalikda, ansanbl ko'rinishida kuylar ijro etilishi an'anaviytus ola boshladi. Turli milliy cholg'ulardan iborat sozandalar ansambllarning tuzilishiga ana shunday ijodiy ishlar sabab bo'lganligi ehtimolidan holi emas. Kiyingi yillarda birxil sozdan iborat bo'lgan qatoransambllar oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, badiy jamolarda, havaskorlik to'garaklarida faoliyat ko'rsata boshladi. Bularga dutorchilar, rubobchilar, g'ijjakchilar, changchilar va doyrachilar ansambllarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Biroq ikki va undan ortiq tanbur jo'rnavozligi hali amaliyotda qo'llanilganicha yo'q. Shu bois ustoz Turg'un Alimatovning tashabbusi va rahbarligida konservatoriyaning an'anaviy ijrochilik kafedrasida talabalardan iborat tanburchilar ansambli tashkil etildi.

Mazkur ansambl dasturidan xalq kuylari, bastakorlarning asarlari, Shashmaqom cholg'u va ashula turkumlari, Toshkent-Farg'ona vohalariga mansub maqom ashula hamda turkum cholg'u kuylaridan namunalar keng o'rin olgan.

Musiqqa asarlarini ansambl bo'lib ijro etilishida (ayniqsa bir xildagi cholg'ulardan tarkib topgan ansambllarda) avvalo sozga katta etibor berilishi lozim. Cholg'ularni birxilda sozlash, o'ng qo'l (yakka zarb, qo'sh zarb, bilak zarb, kalta rez, pirrang kabi) zarblarni va chap qo'l nolalarini bir yo'nalishdagi ijrosiga erishish muhim ahamiyatga ega.

Ustoz Turg'un Alimatov saboqlari ana shunday omillarni mujassam bo'lishida amaliy jihatdan namuna bo'la oladi. Shogirtlar ijro jarayonida doimo ustoz uslubi va o'gitlariga tayanadi.

### **Turg'un Alimatovning ijodiga chizgilar**

Yurtimizning turli voqalarida yashab ijod etgan buyuk ijodkorlar, aziz siymolar ijrochilik san'atida o'ziga xos uslub va maktab yaratganlar.

Tanbur cholg'usi nafaqat yakkanavozlikda, balki yirik musiqqa janri xisoblanmish maqom ashula yo'llarini ijro etishda xofiz uchun etakchi jo'rnavoz cholg'usifatida dovrug' taratgan.

O'tmish tarixga nazar tashlasak, buyuk ustozlardan Ota Jalol Nosirov, Levi Boboxonov, Mulla To'ychi Toshmuxamedov, Sodirxon Xofiz, Shoraxim SHoumarov, SHonazar Soxibov, Jo'raxon Sultonov, Berkinboy Fayziev, Ma'rufxo'ja Baxodirov, Rasulqori Mamadaliev, Fattoxon Mamadaliev va O'zbekiston davlat konservatoriyasida uzoq yillar faoliyat ko'rsatgan Orifxon Xotamov kabi atoqli xofizlar uchun tanburni doimiy jo'rnavoz cholg'u bo'lganligini ta'kidlash joiz. Xar qanday kasbu–kor, ilmu–ma'rifat, madaniyat va san'atning rivoj topishi, bus butun shakllanishi, avlodlar shajarasi zanjirining uzilmasligidadir. Jumladan: musiqa ijrochiligi san'ati ham bevosita avloddan–avlodga o'tib, sayqal topib kelayotgan san'atdir.

20-asrda yashab ijod etgan mashxur ustoz tanburchi sozandalar – Rizqi Rajabiy, ma'rufjon Toshpo'latov, Jo'rabek Saidaliev, Abdumutal Abdullaev, Maqsudxo'ja Yusupov kabi sozandalar qoldirgan ijro asarlari musiqiy xazinamizga salmoqli xissa bo'lib qo'shilganligi ma'naviy boyligimizdan dalolat beradi.

Tanbur cholg'usi ijrochiligida yorqin yulduz xisoblanib, o'zining qalb qo'ri, sehrli barmoqlari bilan chertgan sozidan xush navo taratishi tufayli yuraklarni zabt etgan tillo noxun soxibi O'zbekiston xalq artisti professor Turg'un Alimatov o'zbek milliy cholg'usi soxasida betakror uslub va maktab yaratgan san'atimiz darg'alaridan desak o'rinli bo'ladi. Ustoz ko'p yillardan beri O'zbekiston davlat konservatoriyasi an'anaviy ijrochilik kafedrasida yosh sozanda talabalarga dutor, sato, tanbur cholg'ulari sinfi bo'yicha saboq berib kelgan. Ustozning qo'lida taxsil olgan bir qator shogirdlari yurtimizning nufuzli badiiy jamoalarida, maqom ansambllarida, oliy va o'rta maxsus bilim yurtlarida faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar. O'zbekiston xalq xofizlari Xasan Rajabiy, Maxmudjon Tojiboev, sozandalar dotsent Abdulla Umarov, Alisher Alimatov, Abror Zufarov, Shuxrat Razzoqov, Toir qo'ziev, Ibroxim Samadov, Muxammadjon Mamatqulov kabi iste'dodli yoshlar shular jumlasidandir.

Turli milliy musiqa asarlarini ansambl bo'lib ijro etilishida ayniqsa bir xildagi cholg'ulardan tarkib topgan ansambllarda avvalo sozga katta axamiyat berilishi lozim. Cholg'u asboblarini bir xilda sozlash uchun o'ng qo'l, yakka zarb, qo'sh zarb, bilak zarb, kalta rez, pirrang kabi zarblari va chap qo'l nolalarini bir xildagi ijrosiga

erishish muxim axamiyatga egadir. Ustoz Turg'un Alimatov saboqlari ana shunday omillarning mujassam bo'lishida amaliy jixatdan namuna bo'la oladi. Bunda jamiki shogirdlar ijro jarayonida ustoz uslubiga va o'gitlariga tayanadilar.

Milliy musiqa madaniyatimizning xar qachongidan chuqurroq va atroflicha o'rganish. Uni xalq ichida keng targ'ibqilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Binobarin, O'zbek musiqa madaniyati va uning asosiy qismlaridan biri bo'lgan cholg'u ijrochiligi san'ati qadim-qadimdan boy an'analarga egadir.


Cholg'u ijrochiligi an'analari azal-azaldan xalq musiqa san'atida muxim axamiyat kasb etib kelgan. Bunda biz cholg'u sozlarimizning rang-barangligi, mukammalligi va jozibadorligini ko'ramiz. Milliy cholg'ularimiz orasida keng ommalashgan va o'zining sexrli sadolari, nola-qochirimlari, rang-barang milliy ijro bezaklari va sexrli oxanglari bilan insonlarni o'ziga maftun etgan sozlardan biri-tanburdir.

Bu cholg'udagi betakror ijrochilik xalqimizga manzur bo'lgan va qalblardan chuqur joy olgan. Xalqimizning tanburchilardan Sultonxon Xakimov, Maqsudxo'ja Yusupov, Yoqub Davidov, Asatqori Lutfullaev, Ma'rufxo'ja Toshpo'latov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar; Risqi Rajabiy, Jo'rabek Saydaliev, Abdumutal Abdullaev, SHobarot tanburchi, usta Ro'zmatxon tanburchi, Otavali Nuriddinov, Tojikistonda xizmat ko'rsatgan artistlar; SHonazar Soxibov, Fazliddin SHoxobov, Boboqul Fayzullaev, O'zbekiston xalq artisti, professor Turg'un Alimatov va shular kabi juda ko'p sozandalarni nomlarini faxr bilan tilga olamiz.

Tanbur sozida ko'plab sozandalar chalganida har xil chalishadi, ya'ni simga noxun bilan zarb berilganida, chertilganida bir lari simga tik noxun bilan ursa, birlari yotiqroq noxun bilan zarb berishadi. Ko'zatuvarimiz natijasida shunga amin bo'ldikki, torga, ya'ni simga tik urilgan noxun zarbidan tiniqroq, nisbatan yorqinroq tovush chiqar ekan.



XX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab, O‘zbekistonda tanbur sozini Ijro etishda asosan mohir sozanda, O‘zbekiston xalq artisti, “Buyuk xizmatlari ordeni” nishondori, professor Turg‘un Alimatov maktabi keng tus oldi. Bu mohir sozandaning ijro yo‘nalishida ustoz san’atkorlar, ya’ni bu kishigacha yashab ijod etgan tanburchi sozandalar yo‘nalishlari jamlangan. Masalan: Turg‘un Alimatov ijrosida uchraydigan “pirrang”ni ko‘proq Rasulqori Mamadalievdan ilxomlanib chalganini ko‘p bora ta’kidlagan. Yoki dars o‘ta turib, ustozimiz Turg‘un Alimatov hofizlar chaladigan ijro uslublaridan (zarblaridan) ishlatganlarini guvohi bo‘lganmiz.



San'atimizning etuk mutaxassislari va umuman musiqaga aloqador kishilar ustoz Turg'un Alimatovning ijrolarining musiqqa matnlarini hato deb hisoblashadi. hatoliklar nimalardan iborat: birinchidan, kuylarni (asosan katta asarlarni) ba'zi xonalarini tashlab ketib, o'ziga ma'qul bo'lgan xonalari yoki bo'laklarini chalganlar. Ikkinchidan, kuy chalayotganida musiqiy jumlalar orasida bemalol to'htashlik, lyuft pauzalar qilinishi hisobiga kuy bo'zilishi kuzatiladi. Bizningcha bu ijrolarni xato deb emas, balki o'ziga xos ijrolar deyishimiz mumkin. Kuzatuvlarimiz natijasida shunga amin bo'ldikki, ustoz Turg'un Alimatov ijro etgan asarlar boshqa ijrochilar, ansambllar va ashulalarni xonandalar tomonidan kuy matni nuqtai nazaridan to'g'ri ijro etilgan variantlari, nushalari ham bor. Ammo har bir davrning o'z sozi, ijro uslublari bo'lganidek Turg'un Alimatov ham o'z davrining etuk sozandasi edi. Bu insonning o'z dunyo harashi, musiqqa san'ati sohasidagi boshqa ijrochilarda uchramaydigan did, pokizalik va o'ziga xos musiqiy chizgilari mavjud. SHuning uchun ham ustoz ijrosidagi barcha kuylar o'ziga xos bo'lib, asarlarni chuqur o'zlashtirib, o'zi yaratgan kuy kabi ijro etgan.

Bugungi davrda O‘zbekiston davlat konservatoriyasining an’anaviy ijrochilik kafedrasida ustozlar ijrolarini o‘rganish borasida ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda. hususan tanbur ijrochiligi borasida Turg‘un Alimatov ijrolari bilan birgalikda ko‘plab ustoz tanburchilarni ijro uslublari o‘rganilmoqda. Ustoz Turg‘un Alimatov ijro etgan ammo kuy matnlari tashlab ketilgan bo‘laklarini bus-butunicha talabalarga o‘rgatilib kelinmoqda. Har bir kuyning matnini to‘liqhamda ritmik jihatdan oqsamasdan zamon talablari darajasida ijro etishni yo‘lga qo‘yganmiz. Misol uchun ustoz Turg‘un Alimatov ijro etgan “Nasrulloi” kuyida eng go‘zal xonalar chalingan va qisqartirilgan. Kuyni oddiy inson eshitsu juda ma‘qul bo‘ladi. Bizning talabalarimiz esa kuyning to‘liq va Turg‘un Alimatov ijro etgan variantini o‘rganishadi. Bundan tashqari barcha tanbur ijrochilari va ijro uslublarini imkon darajasida o‘rganiladi.

SHahsan meni ijro etgan asarlarimda ham kichik bir yangilik mavjud, bu ijro paytida bir pardadan ikkinchi pardaga simni tortib, nola qilib yoki nolasiz (rubob sozi kabi) barmoqlar yo‘nalishini pardalar ustida yugurtirib chalish ham boshqa sozandalarda uchramaydi. Bu yangilik ham ijroni mukammal darajaga etkazishda ko‘maklashadi.

## **2.2. O‘ZBEKISTON XALQ ARTISTI, USTOZ XONANDA ORIF**

### **ALIMAHSUMOVNING HAYOTI VA IJODI HAQIDA**

Insonning ma‘naviy kamolotida, uning ruhan poklanishida, asosiy mezonlardan biri, bu mumtoz musiqa san‘atidir. SHodon damlarda ham, boshga tashvish tushgan chog‘larda ham dilbar navoni tinglab, orom topishimizning boisi aslida shu. Asrlar davomida shakllanib, sayqal topgan, xalqimiz ma‘naviy hayotining ajralmas qismiga aylangan mumtoz ashulalar, ularning targ‘ibotchilari bo‘lmish ulug‘ hofizlarning ijodi ezgulikka qaratilgani tufayli hamisha e‘tiborga, e‘tirofqa munosibdir. Ustoz san‘atkorlarning ijodiy merosini o‘rganib, uni yanada keng targ‘ib etish, yosh avlod qalbiga singdirish mas‘uliyatli va sharaflil vazifa bo‘lib qolaveradi.

Musiqa xalq qalbining, ko‘nglining ifodasidir. O‘tgan o‘nlab, yuzlab asrlar mobaynida ajdodlarimizning taqdiri qanday kechdi, ko‘nglida qanday his-tuyg‘ular hukmron bo‘ldi, bularning bari musiqiy asarlarda o‘z aksini topgan.

Bizning mumtoz musiqalarimiz hoh u Buxoro shashmaqomi bo'lsin, hoh Xorazm maqomlari, hoh Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari bo'lsin barchasi o'ychan, dardli nolalar, hazin, hasratli ohanglarga boy.

Musiqqa betimsol ruhiy quvvat, odamzotni hayotga va ezgulikka chorlovchi qudratdir. Soz chalinganda, xonanda honish qilganida go'yo inson tanasidagi jon junbushga kelganday bo'ladi, tuyg'ular yuz, ko'z ifodasida ayniqsa ovozda o'z aksini topadi. E'tibor beradigan bo'lsak, "Avesto" kitobidagi madhiyalar ham qo'shiq shaklida ijro qilingan. "Qur'oni Karim" Rasullullohga ovoz va ohang orqali nozil bo'lgan. SHu sababdan uning oyatlarini qiroatli, xushnafas ovoz bilan tilovat qilish Olloh kalomining ta'sirchanligini oshirgan. Azonni yuqori pardalarda chiroyli ovozda aytish esa Xazrati Biloldan meros.

Bundan xulosa shuki, odamzot ma'lum bir e'tiqodni, muqaddas g'oyalarni o'ziga, o'zgalarga qudratli so'z, go'zal ohang orqali singdirgan va undan ta'sirlangan.

Xalq orasida: "Olloh tomonidan xushsado, go'zal ovoz ato etilgan kishi yarim podshoxdur", degan xikmat yuradi. Darhaqiqat xushsado ovozli xonandalarni butun xalq ardoqlaydi, uyining to'rida mehmon qilib, uning honishlaridan bahramand bo'ladi. YArim podshohlikning hurmat, izzati ham shudir. Xonandalarning niyati "har doim to'y, tinchlik-hotirjamlik bo'lsin" deydi. Sababi, xalq to'y, bayramlar qilsa, demak bu yurtida to'qlik va farovonlik hukm surayotgan bo'ladi. Obod va farovon yurtida bayramlar ko'payadi, bayramlar ham o'z navbatida yaxshi san'atkorlarni ko'paytiradi. Ularning orasida xalq sevgan xonandalar ham ko'payadi. Xozirgi davrimiz aynan farovonlik hukm surayotgan davrdir. Bo'lajak yosh shogirdlar ashula aytish bilan birga o'zbek san'ati, xonandalar, ularning ovoz imkoniyatlari, hayotidagi ibratli voqealar haqida ma'lumot olishsa foydadan xoli bo'lmaydi.

SHuning uchun ushbu kitobda barcha xalq hofizlarining hayoti, ijodi, ustozlari, shogirdlari haqida qisqacha ma'lumot berish barobarida ovoz imkoniyatlari va turlari borasida axborot berishga harakat qildik. Ulardan Ota Jalol Nosirov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Levi Boboxonov, Domla Halim Ibodov, Jo'raxon Sultonov, Hojixon Boltaev, Ma'murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Orifhoji Alimahsumov, kabi hofizlarni ustozlar tazkirasi

sifatida hayoti va ijodi borasida kirish qismida qisqacha to'xtaldik. Orifxon Xotamov, Fattoxon Mamadaliev, Muhammadjon Karimov, Ochilxon Otaxonov, Faxriddin Umarov, Odiljon YUusupov, Quvondiq Iskandarov, Ro'zmat Jumaniyozov, Alijon Erkaev, Eson Lutfillaev, Qobiljon YUusupov, Hasan Rajabiy, Ismoiljon Vaxobov, O'lmas Saidjonov, Isroiljon Vaxobov, Maxmud Yo'ldoshev, Beknazar Do'stmurodov, Farxod Davletov, Mahmudjon Tojiboev, Soyib Niyozov, Orolmirza Safarov, Abdunabi Ibrohimov kabi O'zbekiston xalq hofizlari xaqida asosiy qism sifatida xronologik asosda tuzildi.

Mumtoz navolarning ajib bir xislati bor. Ular ustoz sozanda va xonandaning idroki, kasb mahorati va qalb harorati yo'g'rilgan holda barkamolligini namoyon qiladi. Ayniqsa hofizlik san'ati yo'lida fidokorona mehnat qilgan ustozlar haqida har qancha gapirsak, ularning bosib o'tgan yo'lidan har qancha ibrat olsak shuncha kam. Zero, yoshlar ma'naviyatini boyitishda, asl san'atimizning beqiyos qirralarini dunyoga tanitishda etuk hofizlarning mahorati beqiyos manba bo'lib hizmat qiladi. 1- Prezidentimizning

“YUksak ma'naviyat—engilmas kuch”

asarida ta'kidlanganidek: “Bizning milliy an'analarimizga, axloq—odob qoidalariga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan kliplar, turli tillardagi so'zlarni qorishtirib yoki talaffuzni ataylab buzib, aytish kabi nomunosib harakatlarni ayrim yosh ijrochilar o'zi uchun qandaydir yangicha uslub deb bilayotgani, menimcha, san'atni, uning mohiyati va ahamiyatini tushunmaslikdan boshqa narsa emas. Madaniy jamoatchiligimiz, avvalambor musiqashunos olimlar, ustoz san'atkorlar, kompozitorlar, yozuvchi va shoirlar jurnalistlar, ko'p sonli san'at ixlosmandlari bunday masalalar yuzasidan o'z fikrini ochiq bildirib borishi, shu tariqa yoshlarimizga to'g'ri tarbiya berishimiz ham qarz, ham farz, deb o'ylayman”.<sup>1</sup>

Yana shuni aytishimiz mumkinki, aynan o'zbekona ijro xonandaning yuz, ko'z ifodasi, ayrim xollarda qo'l harakati bilangina so'z matnini sharhlash mumkin. Sahnaga chiqib, yirtiq—yamoq kiymlarni kiyib, mentalitetimizga ma'qul bo'lmagan hatti harakatlar bilan asarni sharhlash, bu san'atning asl mohiyatini tushunmaganlikdandir. Bundan tashqari yangi yaratilayotgan va estrada asari deb



nomlanayotgan turli usullar hamda tovushlar yig'indisini musiqa deb bo'lmaydi. Rosmana o'zbek san'ati o'zining chuqur falsafiy she'rlari, inson qalbining tub-tubiga kirib borib, o'zining dardi bilan uni larzaga keltiruvchi go'zal ohangdir. SHunday mazmun-mohiyatga boy musiqiy asarlarimizni kelajak avlodga tushuntirib borish, milliy ohanglar og'ushida tarbiyalash kattalarning zimmasidadir. Bunga nafaqat musiqashunos olimlar, ustoz san'atkorlar, bastakorlar, yozuvchilar va shoirlar balki ko'p sonli ixlosmandlar ham befarq bo'lmasliklari kerak

—albatta. Ushbu kitob asl san'atimizning fidoiylari bo'lgan ustozlarning hayoti va ijodidan ibratli voqea-hodisalar, ijro dasturlari, ovoz ko'lami, ovoz turi, xalq hofizlarining tashqi qiyofasini bilishlari uchun taqdim etiladi. YAna shuni ta'kidlab o'tmoqchimizki, bo'lajak san'atkor yoshlarimizga ustozlarni tanitish, ularning qilgan ishlari, bastalagan asarlarini o'rgatib, umid qilamizki kelajak avlodga ham ustozlarimizning qilgan ishlari haqida o'rgatadi degan maqsadda mazkur kitobni baholi qudrat taqdim etdi k.

O'zbekiston xalq hofizi Orif Alimaxsumov 1927 yilda Toshkentda ziyoli oilasida tavallud topgan. U yoshligidan ashula aytishga, soz chalishga qiziqar edi. O'n ikki yoshlik paytidan to'qimachilik korxonasiga ishga kirdi. O'sha erda dastlab ustalarga shogird bo'lib, tez orada o'zi ham usta darajasiga etdi. Korxonada doimo radio yangrab turar edi. Unda berilayotgan ashulalarni zehni o'tkir Orifjon tezda yodlab olib aytib yurar edi. Uni san'atga bo'lgan iste'dodini payqagan kasbdoshlari bayram, to'y xashamlarga hizmatga chaqira boshlashdi.

—14 yoshli Orif Alimaxsumovning yoqimli ovozi O'zbekiston xalq artisti Eshmat Xaydarovning e'tiboriga tushdi va u yosh ashulachining ilk ustoziga aylandi. U baland va yoqimli ovoz egasi Orif Alimahsumovga Farg'ona-Toshkent maqomlaridan, Katta ashulalardan bir qanchasini o'rgatdi.

<sup>1</sup>I.A.Karimov. "YUksak ma'naviyat engilmas kuch" (Toshkent 2008 yil, 143–144 bet).

1950 yillarning o'rtalariga qadar bo'lajak hofiz ishtiyoqi baland, zehni o'tkir havaskor xonanda bo'la turib, Karim Zokirov, Turg'un Karimov, Akbar qori ijro yo'llarini ma'qul ko'rib, ular ijro etgan asarlarini aytib yurdi. 1954 yil estrada teatriga xonanda sifatida ishga kirdi. Bu erda Orif Alimaxsumov mashxur san'atkor Muxammadjon Mirzaevdan san'at sirlarini o'rgandi. Katta ustozlar bilan birgalikda 1955–1956 yillarda viloyatlar va qo'shni Respublikalarda gastrol safarlarida ishtirok etdi. SHu yillari xalqning nazariga tushib, sevimli xonandasiga aylanib ulgurgan edi.

1957 yilda YUnus Rajabiy Orif Alimahsumovni radio qoshida yangi ochilgan maqom ansambliga ishga taklif etdi. Tez orada mohir xonanda zamondosh bastakorlarning yangi ashularini, katta ashulala va yallalarni, xususan avjlari bepoyon "SHashmaqom" "Farg'ona–Toshkent maqom" yo'llarini ravon va erkin kuylashda etakchilik qila boshladi. U maqom allomasi YUnus Rajabiy bilan o'n to'qqiz yil mobaynida ijodiy muloqotda bo'ldi.

Orif Alimaxsumovning ovozi tik, ya'ni "Lirik tenor" bo'lib, egiluvchan, yumshoq va shu bilan birga shijoatli, jarangdor yuqori avjlarni to'liq ijro eta olish qobiliyatiga ega bo'lganligi uchun maqomlarning avjlarini Oriqxo'ja Imomxo'jaev bilan birgalikda ko'p hollarda yakka o'zi ijro etib birinchi marta maqomning magnit tasmlariga tushirilishida fidokorona qatnashgan. Mazkur ansamblida ko'p yillar davomida ishlab, noyob mumtoz asarlarni radioning oltin xazinasiga muhrladi. Jumladan, "SHahnoz", "Mo'g'ulchai Navo", "Savti kalon", "Girya", "Fig'on", "Sarparda", "CHorgoh", "Dugoh Husayniy" kabi maqomlarning benazir ijrolari bilan xalqimiz qalbidan chuqur joy oldi. SHuningdek, Orif Alimaxsumov YUnus Rajabiyning "Ra'nolanmasun", Orifxon Xotamovning "Qaro bo'libdur", "Janon qiz", Fahriddin Sodiqovning "To'y muborak", "Gullar vodiysi", "YAshil qishloq", Muhammadjon Mirzaevning "Baxt" va boshqa bastakorlar asarlarini ham maromiga etkazib ijro qildi. 1964 yilda Orif Alimaxsumovga "O'zbekistonda hizmat ko'rsatgan artist" va o'zbek radiosi tashkil etilganining 50 yilligida "O'zbekiston xalq artisti" unvoni berildi.

1976 yilda YUnus Rajabiyning vafotidan so‘ng, vasiyatga binoan Orif Alimaxsumov maqom ansambliga badiiy raxbar sifatida mumtoz musiqamizning rivoji yo‘lida ko‘plab hayrli ishlarni amalga oshirdi.

1972 yili Toshkent Davlat Konservatoriyasida SHarq musiqasi bo‘limi ochildi. Bu erda O‘zbek mumtoz musiqachi sozandalari va maqom ijrochilarini tayyorlanadigan bo‘ldi. Orif Alimahsumov Konservatoriyada shogirdlar tarbiyalashga birinchilardan bo‘lib, taklif etildi.

Konservatoriyada dars berish mobaynida xalqimizga manzur bo‘ladigan ko‘plab xonandalarni etishtirib chiqardi. SHulardan, O‘zbekiston xalq hofizi Mahmud Tojiboev, O‘zbekistonda hizmat ko‘rsatgan artistlar Rahmatjon Qurbonov, Mashrabjon Ermatov, Erkin Ro‘zimatov kabi el sevgan xonandalar Orif Alimahsumov sinfida tahsil olganliklaridan fahrlanadilar.

Orif Alimaxsumov keksaygandan so‘ng ham o‘n yildan ortiq o‘zi istiqomat qilayotgan YAKkasaroy mahallasining oqsoqoli sifatida faoliyat yuritdi. Oynai jahon orqali muntazam beriladigan “Otalar so‘zi–aqlning ko‘zi” turkum ko‘rsatuvlarini ko‘p yillar mobaynida olib borish Orifhoji otaning ziyokorlik martabasini yanada oshirdi. Orif Alimaxsumov 2005 yil xastaligi tufayli olamdan ko‘z yumdi. Hali hanuzgacha ustozning ijro etgan yuzlab ashulalari yosh xonandalar uchun dastak, shinavandalar uchun esa qalbini larzaga keltiruvchi asarlar sifatida namoyon bo‘lmoqda.



Orif Alimahsumov (1927 – 2005 yil Toshkent)

O‘zbekiston xalq hofizi Orif Alimaxsumov 1927 yilda Toshkentda ziyoli oilasida tavallud topgan. U yoshligidan ashula aytishga, soz chalishga qiziqar edi. Tirikchilik vajidan yosh bolalik paytidan to‘qimachilik korxonasi ishga kirdi. O‘sha erda dastlab ustalarga shogird bo‘lib, tez orada o‘zi ham usta darajasiga etdi. Korxonada doimo radio yangrab turar edi. Unda berilayotgan ashulalarni zehni o‘tkir Orifjon tezda yodlab olib aytib yurar edi. Uni san‘atga bo‘lgan iste‘dodini payqagan kasbdoshlari bayram, to‘y xashamlarga hizmatga chaqira boshlashdi.

14 yoshli Orif Alimaxsumovning yoqimli ovozi O‘zbekiston xalq artisti Eshmat Xaydarovning e‘tiboriga tushdi va u yosh ashulachining ilk ustoziga aylandi. U baland va yoqimli ovoz egasi Orif Alimahsumovga Farg‘ona–Toshkent maqomlaridan, Katta ashulalardan bir qanchasini o‘rgatdi.

1950 yillarning o‘rtalariga qadar bo‘lajak hofiz ishtiyoqi baland, zehni o‘tkir havaskor xonanda bo‘la turib, Karim Zokirov, Turg‘un Karimov, Akbar qori ijro yo‘llarini ma‘qul ko‘rib, ular ijro etgan asarlarini aytib yurdi.

1954 yil estrada teatriga xonanda sifatida ishga kirdi. Bu erda Orif Alimaxsumov mashxur san‘atkor Muxammadjon Mirzaevdan san‘at sirlarini o‘rgandi. Katta ustozlar bilan birgalikda 1955–1956 yillarda viloyatlar va qo‘shni Respublikalarda gastrol safarlarida ishtirok etdi. SHu yillari xalqning nazariga tushib, sevimli xonandasiga aylanib ulgurgan edi.

1957 yilda YUnus Rajabiy Orif Alimahsumovni radio qoshida yangi ochilgan maqom ansambliga ishga taklif etdi. Tez orada mohir xonanda zamondosh bastakorlarning yangi ashulalarini, katta ashulala va yallalarni, xususan avjlari bepoyon “SHashmaqom” “Farg‘ona–Toshkent maqom” yo‘llarini ravon va erkin kuylashda etakchilik qila boshladi. U maqom allomasi YUnus Rajabiy bilan o‘n to‘qqiz yil mobaynida ijodiy muloqotda bo‘ldi.



O‘zbekiston xalq artistlari Saodat Qobulova, Orif Alimahsumov va Kommuna Ismoilova.

Orif Alimaxsumovning ovozi tik, ya’ni “Lirik tenor” bo‘lib, egiluvchan, yumshoq va shu bilan birga shijoatli, jarangdor yuqori avjlarni to‘liq ijro eta olish qobiliyatiga ega bo‘lganligi uchun maqomlarning avjlarini Oriqxo‘ja Imomxo‘jaev bilan birgalikda ko‘p hollarda yakka o‘zi ijro etib birinchi marta maqomning magnit tasmalariga tushirilishida fidokorona qatnashgan. Mazkur ansamblda ko‘p yillar davomida ishlab, noyob mumtoz asarlarni radioning oltin xazinasiga muhrladi. Jumladan, “SHahnoz”, “Mo‘g‘ulchai Navo”, “Savti kalon”, “Girya”, “Fig‘on”, “Sarparda”, “CHorgoh”, “Dugoh Husayniy” kabi maqomlarning benazir ijrolari bilan xalqimiz qalbidan chuqur joy oldi. SHuningdek, Orif Alimaxsumov YUnus Rajabiyning “Ra’nolanmasun”, Orifxon Xotamovning “Qaro bo‘libdur”, “Janon qiz”, Fahriddin Sodiqovning “To‘y muborak”, “Gullar vodiysi”, “YAshil qishloq”, Muhammadjon Mirzaevning “Baxt” va boshqa bastakorlar asarlarini ham maromiga etkazib ijro qildi.



O‘zbekiston xalq hofizi Orifxon Xotamov, sozanda O‘zbekiston xalq artisti Orif Qosimov va O‘zbekiston xalq artisti Orif Alimahsumov.

1964 yilda Orif Alimaxsumovga “O‘zbekistonda hizmat ko‘rsatgan artist” va o‘zbek radiosi tashkil etilganining 50 yilligida “O‘zbekiston xalq artisti” unvoni berildi.

1976 yilda YUnus Rajabiyning vafotidan so‘ng, vasiyatga binoan Orif Alimaxsumov maqom ansambliga badiiy raxbar sifatida mumtoz musiqamizning rivoji yo‘lida ko‘plab hayrli ishlarni amalga oshirdi.

1972 yili Toshkent Davlat Konservatoriyasida SHarq musiqasi bo‘limi ochildi. Bu erda O‘zbek mumtoz musiqachi sozandalari va maqom ijrochilarini tayyorlanadigan bo‘ldi. Orif Alimahsumov Konservatoriyada shogirdlar tarbiyalashga birinchilardan bo‘lib, taklif etildi. Konservatoriyada dars berish mobaynida xalqimizga manzur bo‘ladigan ko‘plab xonandalarni etishtirib chiqardi. SHulardan, O‘zbekiston xalq hofizi Mahmud Tojiboev, O‘zbekistonda hizmat ko‘rsatgan artistlar Rahmatjon Qurbonov, Xurriyat Qosimova (Isroilova), Mashrabjon Ermatov, Erkin Ro‘zimatov kabi el sevgan xonandalar Orif Alimahsumov sinfida tahsil olganliklaridan fahrlanadilar.

Orif Alimaxsumov keksaygandan so‘ng ham o‘n yildan ortiq o‘zi istiqomat qilayotgan YAKkasaroy mahallasining oqsoqoli sifatida faoliyat yuritdi. Oynai jahon orqali muntazam beriladigan “Otalar so‘zi–aqlning ko‘zi” turkum

ko'rsatuvlarini ko'p yillar mobaynida olib borish Orifhoji otaning ziyokorlik martabasini yanada oshirdi. Orif Alimaxsumov 2005 yil xastaligi tufayli olamdan ko'z yumdi. Hali hanuzgacha ustozning ijro etgan yuzlab ashulalari yosh xonandalar uchun dastak, shinavandalar uchun esa qalbini larzaga keltiruvchi asarlar sifatida namoyon bo'lmoqda. ”

Orif Alimaxsumov ijodiy faoliyatining har bir bosqichi, o'zining yoshiga, kasbni o'zlashtirish mezonlariga, ustozlardan oladigan saboq davriga, ijrochilik jarayoniga, hamkorlik xususiyatlariga, ustozlik paytlariga, e'tirofga loyqlik jihatlariga ega bo'lib, mantiqan tizimli holatda shakllanganligini guvohi bo'lamiz. Har bir bosqichda asosiy mezon, mumtoz xonandalik sirlarini egallash va an'anaga xos hamda zamonaga mos talqin etishdan iborat bo'lgan ezgu maqsaddan iborat bo'lgan va o'z xususiyatidan kelib chiqqan holda, bir hofizning egallashi zarur bo'lgan amallarni sekin asta zabt etib boradi. Har bir bosqichda muayyan amal bilan band bo'lgan bo'lsada, unga amaliga xos bo'lgan zamonasining ustozlari rahnamolik qiladilar. SHu bois, xonandalik san'atining an'anaviylik xususiyatlarini meyoriga etkazib o'zlashtirishga muvaffaq bo'lgan. Buning zaminida yana bir tabiiy jonlanadigan jarayon mavjud bo'lib, uning zaminida muloqot, hamkorlik, ijod va talqinning go'zal uyg'unligidan vujudga kelgan holat o'rin topgandir.

Muloqot – ya'ni, ko'ngil istagan suhbatlar, ijodiy muhitda yuzaga kelgan muloqotlar. Muloqotlarning tomonlarida hamkorlik qilish imkoniyatlari, ya'ni xonanda va sozanda, xonanda va bastakor va h.k. Hamkorlikning eng pirovardi ijod bilan yakunlansa ayni muddaoni o'zi bo'ladi. Ana shu jarayonda xonandaga bastakorlarning muloqotda ishtiroki ayni muddaodir. Ularning muloqotida yaratilgan asarning yakuniy bosqichi, ya'ni ijrosi albatta mohir xonandaning talqini bilan murodga etadi. SHu bois o'zbek musiqa merosida xonandalarning talqiniga, ovozigga moslab yaratilgan ijod namunalarini salmog'i kattadir.

Orif Alimaxsumovning ijrochilik faoliyatida ham zamonasining etuk bastakorlari bilan bo'lgan hamkorligida yuzaga kelgan mehnat mahsullari alohida e'tiborga loyiq ekaligini e'tirof etish joizdir. Ijodiy muloqotda bo'lgan har bir bastakor xonandaning ijro imkoniyatlaridan kelib chiqib betakror asarlar yaratganligini guvohi bo'lamiz.

YOki, ular yaratgan asarlar xonanda ijrosida o'zining falsafiy purma'no talqinini topganligini ko'ramiz. To'xtasin Jalilov, Faxriddin Sodiqov, Muhammadjon Mirzaev, Imomjon Ikromov, Komiljon Jabborov kabi taniqli bastakorlar bilan hamkorlik xonandaning ijro repertuarini

hamda uslubini shakllanishi va albatta shuhrat topishida alohida ahamiyat kasb etgan desak adashmagan bo'lamiz.

Ijrochilik faoliyatini boshlanish davrida, filarmoniyada ijodiy jamoalar bilan ishlab yurgan kezlarda, mohir sozanda, bir qator shogirdlarga betakror asarlar yaratib ijro amaliyotini o'ziga xos asarlar bilan boyitgan bastakor, Faxriddin Sodiqov bilan yaqindan muloqotda bo'ladi. Birga hamkorlik qilishga to'g'ri keladi. Hamkorlik davrida ustozning ijodidan bahramand bo'lib, bastakorning "YAshil qishloq", "To'y muborak", "Jon qizlar" kabi qo'shiqlarini ijro etadi.

O'z davrining mashhur bastakorlaridan Komiljon Jabborov bilan bo'lgan hamkorlik o'ziga xosligi bilan, ya'ni doimo birgalikda faoliyat olib borilganligi bilan qadrlidir. Bastakor Orif Alimaxsumovning ijro yo'liga xos holda yaratgan asarlaridan biri "Muhabbatdan"dir. Ushbu asar xonanda talqinida amaliyotda keng ommalashdi va bastakorning mumtoz asarlari sifatida hozirgacha ijrochilik amaliyotida talqin etib kelinadi.

Orif Alimaxsumov o'z ustози YUnus Rajabiy bilan birgalikda maqomlarni yozish bilan birga bir qator ashulalarni o'ziga xos uslubdagi talqini ustida ham ishlaganliklarini kuzatish mumkin. Avvalo qayd etish joizki, bastakor "Ra'nolanmasun" asarini aynan Orif Alimaxsumovning ijro yo'liga xos yaratgan. SHu bois bo'lsa kerak ijro amaliyotida bu amal o'z ijobatini topgan. Ustoz-shogird asarlarni yangicha talqinini bayon etishda xalq musiqa merosiga, bastakorlar ijodiga murojaat etadilar. Musiqa merosining yorqin namunalaridan biri "Toshkent Irog'i" asaridir. Ushbu asar o'zining salobatlilik va originalligi bilan xonandalar ijro repertuarini boyitib kelayotgan asarlardandir. Bastakor xonandaning ijroviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda "Buxoro Irog'i" asarining avji bilan aytishni taklif etadi va o'ziga xos talqinga erishadilar. SHu bilan birga ularing hamkorlikdagi ishlarida "Ko'cha bog'i- 2" hamda Hoji Abdulaziz Abdurasulovning "Bozurgoniy"



asarlarini o'ziga xos talqini ham e'tiborga loyiqdir. YUnus Rajabiy Orif Alimaxsumovga bu asarni

muallifning o'zi ijro etgan yo'lda, ya'ni katta avji bilan ijro etishni taklif etadi. Albatta, ushbu amal ham amaliyotda go'zal talqinini topadi.

Orif Alimaxsumoving har bir bastakor bilan o'zlarining munosabatlari bo'lganligi ko'pchilikka ayondir. Xalq bastakori ham hayotdan ilhom olgani kabi, xonandadan, xonandaning ovozi, ijro talqini va qolaversa uning ichki dunyosidan hamda munosabatidan ta'sirlanishi aniq holdir. Bastakor Orifxon Hotamovning xonanda bilan bir necha yillik hamkorligi ham ijoddan bebahra bo'lmagan. Orif Alimaxsumov bastakorning bir qator, ya'ni "Kelgaymikin" (M.Qoriev so'zi), "Jonon qiz" "Mashrab so'zi), "Bo'libdur" (Navoiy g'azali), "Taronai Bayot" (Firoqiy g'azali), "Qoshiyo sinmu deyin" (Navoiy g'azali) kabi asarlarini ijro etgan. SHulardan ikki namuna bastakor tomonidan xonandaning ijrosiga mo'ljallab yaratgan. Aynan, Ma'ruf Qorievning "Kelgaymikin" radifli g'azaliga bastalagan ashulasi hamda Bayot yo'llaridan ilhomlanib Firoqiy g'azaliga yaratgan "Taronai Bayot" ashulalari xonanda ijrosiga atalgan va amaliyotda bastakorning istagi bilan Orif Alimaxsumov ijrosida yangrab kelgan.

O'zbek mumtoz musiqa merosi namunalarining xususiyatlaridan biri, ularning ovoz va talqin tanlashlaridir. Bu albatta, har qanday xonandaning ovoz imkoniyatlarida o'ziga xoslik bo'lsa ularni ko'rsatish uchun imkon yaratuvchilik omili sifatida qadrlidir. Amaliyotda, YUnus qori YUsupov, G'ulomjon Hojiqolov, Tavakkal Qodirov va Orif Alimaxsumovlarning nomlari aynan shu masala bo'yicha e'tirof etilishi musiqa ixlosmandlariga ma'lumdir.

Xalq musiqa ijodiyotida nazira, o'xshatma kabi ijod uslublari bastakorlik amalida keng qo'llanilib kelingan. Bu jarayon ma'lum ohanglardan ilhomlanib, bastakorning tasavvuri doirasida yangi asarlar yaratilgan. Ijrochilik amaliyotida bu o'ziga xos ijod amaliga aylanib davrlar osha bastakorlarning ijod an'analaridan munosib o'rin egallagan. Aslida musiqa merosimizda mavjud asarlarning aksariyati, ularning qaysidur tomonlariga o'xshatma va nazira bo'lishi begumondir. Bastakorlarning ana shu amallari negizida cholg'u kuylariga so'z qo'yish yoki cholg'u musiqasini aytimga

aylantirish, muayyan ashulaning ohanglaridan ashula variantlarini ishlash an'anasi ham ana shunday bastakorlik ijodiyotining bir qirralaridan hisoblanadi.

O'zbek xalq kuylarini ashula variantlarini yaratish bastakorlarning azaliy amallaridir. Musiqa merosimizda ham bir qator asarlar ana shunday amallar asosida yaratilib kelingan. Bularga yorqin misol sifatida "Munojot", "Dilxiroj", "CHO'li Iroq", "Hojiniyoz" va h.k.larni ko'rsatish mumkin.

**"CHO'li Iroq"** – mashhur bastakor Imomjon Ikromovning bastakorlik amallaridan biri "lahnpardoz"likka xos yaratgan asaridir. YA'ni, bastakor "CHO'li Iroq" xalq kuyining ashula variantini ishlashga, Alisher Navoiyning "Ey nasimiy ..... " so'zi bilan boshlanadigan g'azalini shu kuyga solishga muyassar bo'lgan. Asarni ohang mag'zi xalq orasida shu nom bilan mashhur bo'lgan "CHO'li Iroq" kuyiga o'xshatma sifatida yaratilganligi yaqqol sezilib turadi. SHunday bo'lsada Iroq kuyidan mohirona foydalangan holda ashula varianti ishlangan. Bu asar taniqli hofiz Orif Alimaxsumov ijrosida mukammal talqinini topgan va xalq orasida keng ommalashgan.

Orif Alimaxsumovning ham ovoz tusi imkoniyatlari, tarannum diapozoni mobaynidagi ovozning jarangi hamda mung taratuvchanlik imkoniyatlari o'ziga xosdir. Aynan, shu jihatlar uning talqin uslubida o'ziga xoslik mavjud. Davrining dongdor bastakori Imomjon Ikromov bilan bo'lgan hamkorligida, xonandaning imkoniyatlari to'laqonli ifodasini topadi. "CHO'li Iroq" ashula varianti Orif Alimaxsumovning talqinida o'ziga xos jozibasini topdi. Asarni ijro etishda bosiqlik, aniq talaffuz, ohangni jilolab talqin etish yaxshi natijalarga olib keladi. Eng muhimi asarning ichki falsafiy ma'nosiga xos talqin etilganligini guvohi bo'lamiz. Ushbu nota namunasi ham muallif tomonidan Orif Adimaxsumov ijrosi etgan namunadan notaga olingan. Misol № 1.



bilan boyitganliklarini biz kundalik hayotimizda shohidi bo‘lib kelamiz. Ushbu asarni ijrochisi sifatida har gal o‘zim ijro etganimda ham qilgan xizmatimdan o‘zim mamnun bo‘lib qolaman. CHunki, umrim zoe ketmadi. SHu dargohda, shu narsani yana qayta tiklanishda kichginagina bo‘lsa ham o‘zimni hissam borligidan doim hayotimdan mamnun bo‘lib kelaman. Qaysi suhtbatga, qaysi davraga nasibam qo‘shilgan bo‘lsa, o‘sha erda bularni birinchi boshlagan kuylari shu “CHo‘li Iroq”dan boshlanadi. CHunki, bu qo‘shiq xalqimizni nihoyatda qon- qoniga singib, nihoyatda ularni muxlisona e’tiborlarini o‘ziga tortganligini yana bir karra shohidi bo‘ldim. Ulug‘ mutafakkirning qalamlariga mansub “Ey nasimiy subh ahvolim diloromimg‘a ayt” deb oshiqning –mashuqaga nisbatan qay darajadagi istirob chekib, unga samimiy muhabbatini izhor etishda tong otish davrida esadigan yoqimli shabbodaga qilgan iltijosini shoir ajoyib so‘zlar bilan qalamga olganlar va buni bastakor Imomjon aka aynan hos etgandek, ana shu shoirning so‘zini shu o‘lmas asarga muhrlab, buni yana umrboqiylikka yuz tutmoqqa katta zamin yaratganlar”<sup>8</sup>. Demak, Orif Alimaxsumovning ashulaga munosabati o‘zgacha bo‘lgan. Asarda ulkan madad olishga muyassar bo‘lish bilan birga ijodiy muosabatda bo‘lish uchun mehr o‘yg‘otgan. Musiqiy namunalar ijrosiga ijodiy yondoshishga undagan. Hofiz Orif Alimaxsumov, Imomjon Ikromovning amallaridan ruhlanib musiqiy mnrosimizda mavjud bir qator ashulalarga ma’no jihatidan mos, bahri va vazniga xos bo‘lgan yangi so‘zlar qo‘yib ijro etishga muvaffaq bo‘ladi. Musiqa merosidan o‘rin olgan ashulalari yangi so‘z bilan

---

<sup>8</sup> Orif Alimaxsumovning suhbatidan.

aytish an'anasi o'zbek bastakorlari va xonandalari ijodida mavjud. Bu jarayon merosning har tomonlama boyitishda va bastakorlikdagi yana bir amalning samarasidir. Bunga misollarni ko'p keltirish mumkin, jumladan Dugoh ashulasi 5-6 ta mumtoz g'azal bilan aytishidir. Ushbu amal yo'llarini Orif Alimaxsumov, ustози Eshmat Haydarovdan o'rgangan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Xonanda ustozidan olgan amaliy saboqlari negizida Jo'raxon Sultonovning asarlariga yangi so'z qo'yib ijro etishga muvaffaq bo'ladi. SHulardan biri Uvaysiy so'zi bilan "Bo'lmisham" ashulasi bo'lib, Jo'raxon Sultonovning "Naylayin" ashulasi kuyiga solingandir. Misol № 2:

Собир Абдулла сўзи  
М.М. ♩ = 100

Ж.Султонов мусиқаси

Дил-ба-ри пай - карсу ман-бар ё-ра о шик бўл - ми  
шам Лаъ - ли дил - каш сў - зи хуш дил - -  
до - ра о - - - шик бўл - - ми-шам

Ikkinchi namuna Hakimiy so'zi bilan ijro etilgan "Bormikan" ashulasidir. Bu ashula Jo'raxon Sultonovning "O'lmasun" ashulasini kuyiga solingandir. Orif Alimaxsumov musiqa merosimizdan o'rin olgan mumtoz asarlarning, aynan musiqa asoslarini ko'pjihatli xususiyatlarga ega ekanligi, turli masmundagi g'azallar bilan hamohang bo'la olish jihatlari egaligini yana bil bor dalillab beradi. Misol № 3:

Боғ а-ро хам

7  
сен ка-би сар - ви хи-ра - мон бор-ми-кин

13  
Юз-ла-ри гул со-чи сум

18  
- бул кад-ди рай - хон бор-ми-кин

Orif Alimaxsumovning yangi soʻz bilan ijro etgan ashularidan yana biri A.Navoiyning “Ermush” radifli gʻazali bilan “Bayoti SHeroz – I” hamda, “Qiladur” ridifli gʻazali bilan “Qoʻqon Ushshogʻi” namunalarini ijro etganidir. Har ikki asar ham xalqimizning qalbidan oʻrin olgan va ijro etiladigan oʻz soʻz matnlari mavjuddir. Lekin, bastakorlikning ushbu amalida ikki jarayon muhim ijodiy munosabat sifatida qadrlanadi. Birinchidan, ashulaning mukammal mumtozligiga ishora boʻlsa, ikkinchidan, ashulalar kuy-ohangining koʻpjihatli xususiyatga ega ekanligini, turli mazmundagi gʻazallarning talqiniga hamohang boʻla olishini koʻrsatadi.

Ijrochi xonanda sifatida el nazariga tushgan Orif Alimaxsumovning ustoz bastakorlarimiz bilan birgalikda yangi ijod namunalariga qoʻl urishi albatta qadrlidir. Oʻzining kamtarona munosabati bilan Orif Alimaxsumov faqat ijroga katta eʼtibor qatarganliklari va anʼanaga tayanganliklari xonanda ijodidagi asosi omil sifatida qoladi.

## 2.3. USTOZ HAQIDA ZAMONDOSHLARI VA SHOGIRLARI

**ZOKIRJON qori SHARIPOV.**

*Yakkasaroy masjidining bosh imomi*

### YODNOMA

1992 yil may oyining oxirlari edi. Rahmatlik Orif hoji ota Alimaxsumov bilan ilk bor “YAkka Saroy” jome’ masjidiga Abdurahmon hoji domla Rahmatullaevga yodamchi bo‘lib kelganimda tanishgan edim. “Otalar so‘zi aqlning ko‘zi” ko‘rsatuvidagi so‘z ishlatishlari meni doim o‘ziga tortib yurar edi. Ammo o‘zlarini ko‘rish va sermazmun duolarini olish meni juda quvontirgan edi.

U kishining so‘z ishlatishi haqiqatda ham san’at darajasida edi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. So‘zlar o‘z ma’nosi va qofiyasi bilan toshqin daryo misoli tillariga oqib kelar edi. Mumtoz adabiyotimizni chuqur bilishlari nutqlariga o‘zgacha fayz berar edi. Ba’zi so‘zlarni birinchi bora eshitganimni ham yashirmayman: sarafroz, sarfarozi, hamnishin, ba qamti diydor va boshqalar.

Rahmatli SHarof ota Rashidov vaqtlarida Alisher Navoiy rahimaulloh hazratlari haqida va u zotning bir g‘azallarini sharhi yuzasidan O‘zbekiston radiosi orqali uch kishining ma’ruzasi eshittirilgan. Hoji otadan oldin gapirgan filologiya fanlari doktori, professorlarning ma’ruzalari ilmiy bo‘lib chiqqan. Oxirida so‘zga chiqqan Orif Alimaxsumov oddiy xalq tilida, g‘azalning har bir lafzini tahrir qilib berish bilan, uning ahamiyati, mazmun-mohiyatini, foydalarini ham gapirganlar.

SHarof ota Radiokomitetga telefon qilib Orif Alimaxsumovga shaxsan mening nomimdan tashakkur bildirib qo‘ying, menga uning ma’ruzasi va tanlagan g‘azali, qilgan sharhi juda ham yoqdi, deb aytganlar. Ertasiga ertalab, Radiokomitetga kirish oldida direktorning o‘zi kutib olib, hoji otaga alohida yuqoridagilarning tashakkurini bildirgan.

Ular bilan birga xalq xizmatida bo‘lib, qiziq va ibratlik holatlarga ko‘p marta guvoh bo‘lgan ekanman. Bir kuni nohorda mahallada bir yig‘inga bordik. Ko‘rinishdan to‘y bo‘layotganga o‘xshardi. Eshikda turgan hassakashlarga birgalikda: - Muborak bo‘lsin, yoshlar qo‘sha qarisin, baxtli, saodatli bo‘lsinlar, - deb tabriklab kirib bordik.

Dasturxon atrofiga o'tirib yana shu mazmunda duolar qildik. O'rtani boshqarayotgan okaxon: "Bir tilovat qilib yuboringlar, bu erda ma'raka bo'lyapti", deb qoldi. Hammamiz xijolat bo'lib qoldik. Chunki, hassakashlarda ham, uyinging jihozlanishida ham ma'rakaning alomati yo'q edi. Ketish oldidan fотиha qilishda xonadon egalarini chaqirtirdilar:

-Aziz bolajonlarim! Qilgan ehsonlaringizni Alloh qabul qilsin. Lekin 70 yil sovet kurashib milliy kiyimlarimizni yo'q qilishga urindi. Ancha natijalarga erishdi. Milliy kiyimlarimizni do'ppi, qiyiqcha, belbog'larni, chapon-chakmonlarimizni ma'rakamotamlarimizda kiyish imkoni qoldi xolos. Allohga qarshi chiqding, bel bog'lading, deb qayoqdagi dinga aloqasi yo'q kiyimlarimizdan ayirmoqchi bo'layotgan vahhobiylarga ham la'nat bo'lsin. Sizlar esa, hech bo'lmasa belbog' bog'lab olganingizda, biz ko'pchilik ichida bunchalik mulzam bo'lmas edik. To'y deb tabriklab o'tiribmiz. Bu bizning milliy kiyimimiz, faxr bilan kiyadigan do'ppimiz, belni mahkam ushlab turadigan belbog'u, har qanday yigitni ko'rkini ochadigan cho'ponlarmiz-ku, bu axir.

Bu tanbeh hammaga ma'qul bo'ldi, do'ppining naqshlaridagi ma'no va hikmatlarni va boshqa kiyimlarimizdagi shunday ma'nolarni topib ancha fikr-mulohazalar bildirdilar va Hoji otaning fikrlarini ma'qulladilar.

O'zlari xalq hofizi bo'lganliklari uchun ham mumtoz adabiyotimiz: g'azal va she'rlarni mazmun-mohiyatini bilgan holda, ba'zan ularni sharhlashni yaxshi ko'rar edilar. So'z mulkinging sultoni Mir Alisher

Navoiy, Fuzuliy, Mashrab, Xo'janazar Huvaydo kabi, zamonaviy shoirlardan "O'zbegin" she'rini muallifi va boshqalarning ijodlarini biz yoshlar bilan, ko'pincha masjid qavmlari bilan baham ko'rar edilar. Hazrat Fuzuliy qalamiga mansub odamlarning qiyomat kunidagi tang ahvollarini keltirib, u bilan ishi yo'qligini, parvo qilmasligini aytib, ey Alloh agar sen menga shu kuni boqmasang edi mening qiyomatimni ko'r, deya o'zlari ham yig'lar edilar. Va bizlarni ham ko'ngillarimizni yumshatib yig'latare edilar.

Ko'zlarning so'qirliging yomon, qalb so'qirliging yomonroq...



## MIRABBOS MIRZAAHMEDOV.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi, “Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi” ko‘rsatuvi rejissyori va boshlovchisi.

### SAN’AT – O‘LMAS KUCH

(Portretga chizgilar)

Men ustoz san’atkor – Orif Alimahsumovni maktabda o‘qib yurgan vaqtimdan beri bilaman. O‘zbekiston radiosi qoshidagi maqomchilar guruhida ashulachi bo‘lib ishlardilar. Men “pioner ertaligi” (o‘quvchilar uchun beriladigan radioeshittirish)da qatnashib yurganimda ularni tez-tez ko‘rib turardim. Qo‘shiqlarni magnit tasmaiga yozish avval oylab mashq qilinar edi. O‘sha damlarda men zalning bir chekkasida o‘tib ularning ishlash jarayonlarini ko‘rib, musiqa bilan ishlash, ovozni qanday sozlash kerakligini o‘rganar edim.

Keyinchalik san’at institutini bitirgach, musiqali redaksiya orqali efirga kelganlarida qo‘llarini olib ko‘rishish, suhbatlashish, yakkaxon ijrolarini ham, maqomchilar bilan birga ijro etganlarini yozib olish, ba‘zan jonli efirga berish sharafiga muyassar bo‘lganman. U kishida ijrochilik mahorati o‘zgacha edi.

Umr bir zumlik deb, uni qadrlab, mehnatdan tinmaydigan – Orif Alimahsumov butun umrini san’atga bag‘ishladi. Men “YOshlik” studiyasida “Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi” ko‘rsatuviga 1970 yildan boshlab rejissyorlik qilib yurardim. Karim Xonkeldiev, Badal Nurmuhamedov, Nurillo Abdullaev, SHarif Valixo‘jaevlar shu ko‘rsatuvga boshlovchilik qilib vaqti- soati etgach, chin dunyoga safar qilishdi. Ko‘rsatuv biroz to‘xtab qoldi. Kunlarning birida teleradio qo‘mitasining o‘sha vaqtdagi raisi SHavkat G‘aniev meni chaqirib, Orif Alimahsumovni zudlik bilan topish kerak, u kishi endi “otaxon” bo‘lib chiqadilar. Buni menga Islom Karimov aytdilar,

- dedi. Men juda xursand bo‘lib ketdim. Birinchidan, xalq sevgan ko‘rsatuvga O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning e‘tiborida bo‘lgani bo‘lsa, uch oydan beri to‘xtab qolgan ko‘rsatuv yana efir yuzini ko‘radigan bo‘ldi. Buning ustiga o‘zimizning sevimli artistimiz Orif Alimahsumovning boshlovchi bo‘lishi.

Men ssenariyni ko'tarib Orif akaning uyiga bordim. U kishi tekstni varaqlab chiqib biroz o'ylanib qoldilar: - Qanday bo'larkin, men hofiz bo'lsam, uddalay olarmikinman? Buning ustiga bu ko'rsatuvni butun xalqimiz sevib tomosha qiladi. Efir vaqtini sabrsizlik bilan kutadi. Javobgarligi juda katta. Men birga tayyorgarlik ko'rishimizni, bir-ikkita repetitsiyada chiqmasa, keyin albatta chiqadi. Siz xalq orasida yurgan odamsiz, to'ylarda, uchrashuvlarda chiroyli chiqishlaringizni guvohi bo'lganmiz. Buning ustiga mahalla raisi ham ekansiz. Ular bilan ko'p muloqotda bo'lgansiz. Bilasiz, ko'rsatuvimiz xalq e'tiboriga tushgan ko'rsatuvlardan biri. Kattakichik "Otalar so'zi – aqlning ko'zi"ni jon deb kutadi, ko'radi. Rozi bo'ldilar. Ssenariyni topshirib kelar ekanman, xayolimdan quyidagilar o'tdi: - tomoshabin oldidagi javobgarlikni o'ylash, his qilish shunchalik bo'ladida.

Oradan ma'lum vaqt o'tib, ko'rsatuv yozib olindi. Montaj qilib bo'lgach, badiiy kengashga topshirdik. Hammaga ma'qul bo'lgach, efirga berdik.

Oradan bir hafta o'tar-o'tmas, Orif aka redaksiyaga qo'ng'iroq qilib, salom-alikdan so'ng: - Mirabbos radioda, televizorda ko'p chiqdim, lekin "Otalar so'zi – aqlning ko'zi"da otaxon bo'lib chiqish o'zgacha ekan. Hatto uyga tomoshabinlar kelishmoqda. Ular minnatdorlik bildirishmoqda. Ba'zilari oilaviy ahvolidan, farzandlaridan, kelinlaridan xafa bo'lib, iloji bo'lsa yordam berishimizni so'rashyapti. Xullas, eshik oldida har kuni odam.

Ha, Orif Alimahsumov o'zining ijodiy ishidan tashqari, mahallaning ishi, murojaat qilib kelayotgan teletomoshabinlarning ishi ham qo'shildi. Televidenienga – "Otalar ko'zi – aqlning ko'zi" ko'rsatuviga butun O'zbekistonning turli joylaridan maktublar soni ko'paygandan ko'paydi. SHu sabab, "Otalar ko'zi – aqlning ko'zi" pochta ko'rsatuvi tashkil etildi. Ko'rsatuv jonli efirga uzatildilar. Aktyorlar maktublarni o'qishadi. Orif aka bu maktub egasiga otaxon sifatida o'z fikrlarini bayon qiladilar. Ular juda o'qimishli bo'lganlari uchun klassik adabiyotdan, hadislardan hayotiy misollar bilan javob beradilar.

Bilasiz, jonli, to'g'ridan-to'g'ri efir mas'uliyati og'ir. Odam o'zini yo'qotib, o'ylab qo'ygan so'zlarini ham unutib dovdirab qolishi mumkin. 50- 60 daqiqa jonli

tomoshabin bilan muloqot oson ish emas. Orif aka katta mahorat egasi bo'lganliklari uchun ham doim ishga mehr bilan yondashib xatlarga javob berardilar.

“YOshlik” studiyasining o'sha vaqtdagi bosh muharriri Elbek Musaev bir yillik “Otalar ko'zi – aqlning ko'zi” ko'rsatuvini efirga ketgan vaqtlarini yozib militsiya bo'limiga berdilar: - Iltimos shu ko'rsatuv efirga ketayotgan vaqtlarda qanday jinoyat, to'polon, avtohalokat, ko'ngilsiz hodisalar bo'lganini belgilab berishlarini so'rabdilar. Buni qarangki, bir yil davomida shu ko'rsatuv ketayotgan vaqtda birorta ham ko'ngilsiz hodisa bo'lmaganligini ma'lum qilishibdi.

Haqiqatdan ham Orif Alimahsumov teletomoshabinlarni sehrlab qo'yardi. Men o'zim ham ko'p guvoh bo'lganman. Videoyozuvlar orqali efirga beriladigan vaqtda ko'cha transportida uyga qaytar ekanman, yo'lovchilar

haydovchiga aka tezroq haydang, axir bugun “Otalar ko'zi – aqlning ko'zi” bo'ladi. Kech qolmaylik. Otaxon – Orif Alimahsumovning kirish so'zlarini eshitaylik, juda chiroyli gapiradilarda o'ziam.

Keyingi vaqtlarda Orif akaning tobi uncha yaxshi bo'lmay uylarida tasvirga oladigan bo'ldik. U vaqtda to'yxonalar kam edi, hamma o'z hovlisida osh berardi. Orif aka nabiralariga osh berdilar. Orif aka – “Kecha siz ketganingizdan so'ng, Islom aka Karimov nabira oshiga kelib ketdilar. Juda xursand bo'ldim”- dedilar.

Xalq sevgan inson mehnati hamisha ardoqlanadi. O'zbekiston xalq artisti, hofiz Orif Alimahsumovning teran fikrlari, dono nasihatlari, shirali, yoqimli ovozi necha yillar o'tsa ham quloqlarimiz ostida jaranglayveradi. Radioto'lqinlarida, televizor ekranlarida arxiv-fondga saqlanayotgan durdona asarlar qatorida Orif Alimahsumovning ovozini ham, siymosini ham yana uzoq-uzoq yillar ko'raveraman, eshitaveraman. Chunki, ular ijro etgan qo'shiqlar o'lmaydi. SHogirdlari ularning ishlarini davom ettiraveradi. SHogirdlar bor ekan, ustozlar ishi bardavomdir.

Xalq sevgan inson bo'lib qolish hammaga ham nasib etsin.

25 fevral 2017 yil.

## **Abduhoshim Ismoilov**

O'zbekiston xalq artisti

### **MULOHAZALI, BILIMDON USTOZ.**

Men 1974 yili Maqom ansambliga ishga kelganman. SHunda YUnus Rajabiy jamoaning badiiy rahbari, Faxriddin Sodiqov esa musiqa rahbari edilar. Orif Alimaxsumov ansamblning barcha hofizlari safida o'tirar edilar. Ustozlarning har birlari alohida dunyo. Ularning o'z ijro yo'llari, elni oldida erishgan obro'-e'tiborlari bor. Lekin eng muhimi,

ya'ni o'ziga xosligi ularning amaliyotda erishgan uslublaridadir. Ularni bir biridan kamsitib bo'lmaydi. Ustozlar orasida Orif Alimaxsumov mulohazali, gapirgan har bir gapini mag'zini chaqib, iloji boricha birovning dilini og'ritmasdan, zukkolik bilan muomala qiladigan inson edilar.

Men Orif aka bilan 20 yilga yaqin davr mobaynida bitta jamoada ishlagan bo'lsam, biror marotaba, biror insonni ko'ngliga ozor berganlarini ko'rmaganman. Har doim chiroyli muaomala bilan o'z maslahatlarini bergan, ijrolari bilan ko'rsatganlarini guvohi bo'lganman.

Insonga berilgan qobiliyat darajasi har xil bo'ladi. Ajoyib ustoz san'atkor Umar Otaev ju jamoada ishlar edilar. U inson hofiz sifatida xalq tomonidan "jonli biblioteka" degan nomga ega bo'lgan. Ansamblida bir necha yil Orif Alimaxsumov bilan ishlagan Umar Otaev, ustozning ijodiga baho berib, "haqiqiy, jonli biblioteka Orif aka ekanlar" - degan. Nimaga bunaqa deb o'ylamas ekanmiz. Qarangki, men shuncha yil birga ishlab hech qachon u kishining qo'lida daftar ko'rmaganman. Boshqalarda bu narsani ko'rish mumkin edi. Lekin, Orif akaning qo'lida bo'lmagan. Buning sabablari bor. Orif aka maqomlarni YUnus aka qanday o'rgatgan bo'lsa shundayligicha xotiralariga olaverganlar. Biror bir ohangning yoki so'z matnining zeru-zabariga nuqson tekizmaganlar. Hayotda fenominal xotiraga ega bo'lgan insonlar kam bo'ladi. Orif Alimaxsumov ana shunday qobiliyatga ega bo'lganlardan biri edilar. SHu bois YUnus akaning ishongan shogirdi, ohangda va baytlarda suyanchig'i edilar.

Orif akaning ibratli xislatlaridan, birovga ozor beradigan odatlari yo‘q edi. Bu bir jumla bilan aytilgan gapu, lekin uning zaminida hayot falsafasining ijobiy qonuniyatlari jamlangan. Bu Orif akaning ustozlarga bo‘lgan hurmatida, shogird va yoshlarga bo‘lgan munosabatlarida, jamoa, mahalla, qo‘yingki hayotda uchraydigan har bir munosabatida o‘zini namoyon etgan. Va buni u kishi bilan muloqatda bo‘lgan insonlarning hammalari biladilar.

Ustozga bo‘lgan hurmatni aytish shart emas ekan. Inson o‘z ishi, muomalasi bilan ko‘rsatsa ham bo‘laverar ekan. Orif akani YUNUS akaga bo‘lgan hurmatini mana shu maqom ansamblida ko‘rganman. O‘rgangan maqomlarini birontasini ham o‘zgartirganlari yo‘q. Qanday ijro etgan bo‘lsak shundayligicha bizga o‘rgatardilar. O‘rganish jarayonida har bitta xonandadan o‘zlashtirganini aytib berishni so‘rardilar. Eshitib ko‘rib, ijro yaxshi bo‘lmagan bo‘lsada, unga nisbatan “Juda yaxshi aytdingiz, lekin mana shu pardaga ozgina xiyonat qildingiz”- deb, o‘zlari to‘g‘ri variantini aytib berib to‘g‘irlab qo‘yardilar. Men rahbarman deb hech qachon o‘zini ko‘rsatmas edi. Doimo haqiqiy ilmi va bilimli ekanligini, hamma narsalarga aqli etishligini, hozirjavobligini, gapga ustaligini, so‘zlarni marjondek terib so‘zlashini, so‘zdagi tozalik, benuqsonligi bilan gapirganda e‘tiqodi baland, go‘zal insonligini namoyon etib turardi. Buni hammasini ibrat deb qabul qilish lozim. Bu odamdagi ovoz tusi ham original bo‘lgan. Ovoz diapozoni ham qancha aytsa so‘zga kiradigan darajada bo‘lgan. Bunga biz bir necha marotaba guvoh bo‘lganmiz. Ayniqsa do‘stlar davrasida, kayfiyati chog‘ paytlarda, ovozning nimalarga qodir ekanligini ijrosi bilan ko‘rsatib berardi. Bunga bir misol, “Na bo‘lg‘ay” ashulasini Orif aka doimo “re” pardasidan aytib yurgan. SHu pardaning o‘zidan chiroyli va go‘zal ijro etgan. Bir izdihomda, shu ashulani pardasini sal ko‘tarib boshlashga manga ishora qildilar. Men “mi” pardasini sadolantirsam, “yana ozgina” – dedilar. Men hayajonda “fa diez” dan boshladim- u, lekin uning yuqori avj pardasii o‘ylab yana ustaga qaradim. Orif aka mamnun bo‘lgandek boshlarini ilg‘ab xonishni boshladilar va katta mahorat bilan ijro etdilar. Darhaqiqat, ustozlarni ustaligini aynan ijroda ekanligi yana bir bor namoyon etildi. Ustozning yoshlarga va shogirdlarga bo‘lgan munosabatlari ham alohida e‘tiborga loyiqdir. Orif aka yosh xonanda va sozandalarga nisbatan “bolajonim” degan

soʻz ogʻzidan tushmas edi. Har qanday holatda ham “harakatingni toʻxtatma” – der edilar. Notoʻgʻri aytgan joyini koʻrsatib

“mana shu eriga ahamiyat berib qoʻygin” – der edi. YOshlar mana shunaqa odob bilan kirib kelsun degan fikr boʻlardi.

Orif aka oʻz shogirdlariga qiziq hodisalardan gapirib, “oʻzingni erkin tut” - deya iliq munosabatda, shogirdlarini hayajonini ketkazib, keyin ochiq chehra bilan ish boshlar edi. SHu bois boʻlsa kerak ustozning shogirdalari ham mehrlil, kasbiga sadoqatli va shogirdlarga doimo yaxshi munosabatdadir.

Orif akadan koʻp narsa olganman. Sanʼatkor odobi, muomalasi, ijrosi, qaysi bir tomonini olmang albatta – ibrat darajasida ekanligini guvohi boʻlasiz. Bu insonning sanʼatdagi yoʻli kelajak avlod uchun har tomonlama namunadir.

## Xulosa

Insonning ma'naviy kamolotida, uning ruhan poklanishida, asosiy mezonlardan biri, bu mumtoz musiqa san'atidir. SHodon damlarda ham, boshga tashvish tushgan chog'larda ham dilbar navoni tinglab, orom topishimizning boisi aslida shu. Asrlar davomida shakllanib, sayqal topgan, xalqimiz ma'naviy hayotining ajralmas qismiga aylangan mumtoz ashulalar, ularning targ'ibotchilari bo'lmish ulug' hofizlarning ijodi ezgulikka qaratilgani tufayli hamisha e'tiborga, e'tirofqa munosibdir. Ustoz san'atkorlarning ijodiy merosini o'rganib, uni yanada keng targ'ib etish, yosh avlod qalbiga singdirish mas'uliyatli va sharaflil vazifa bo'lib qolaveradi.

Musiqqa xalq qalbining, ko'nglining ifodasidir. O'tgan o'nlab, yuzlab asrlar mobaynida ajdodlarimizning taqdiri qanday kechdi, ko'nglida qanday his-tuyg'ular hukmron bo'ldi, bularning bari musiqiy asarlarda o'z aksini topgan. Bizning mumtoz musiqalarimiz hoh u Buxoro shashmaqomi bo'lsin, hoh Xorazm maqomlari, hoh Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari bo'lsin barchasi o'ychan, dardli nolalar, hazin, hasratli ohanglarga boy.

Musiqqa betimsol ruhiy quvvat, odamzotni hayotga va ezgulikka chorlovchi qudratdir. Soz chalinganda, xonanda honish qilganida go'yo inson tanasidagi jon junbushga kelganday bo'ladi, tuyg'ular yuz, ko'z ifodasida ayniqsa ovozda o'z aksini topadi. E'tibor beradigan bo'lsak, "Avesto" kitobidagi madhiyalar ham qo'shiq shaklida ijro qilingan. "Qur'oni Karim" Rasullullohga ovoz va ohang orqali nozil bo'lgan. SHu sababdan uning oyatlarini qiroatli, xushnafas ovoz bilan tilovat qilish Ollah kalomining ta'sirchanligini

oshirgan. Azonni yuqori pardalarda chiroyli ovozda aytish esa Xazrati Biloldan meros.

Bundan xulosa shuki, odamzot ma'lum bir e'tiqodni, muqaddas g'oyalarni o'ziga, o'zgalarga qudratli so'z, go'zal ohang orqali singdirgan va undan ta'sirlangan. Xalq orasida: "Ollah tomonidan xushsado, go'zal ovoz ato etilgan

kishi yarim podshoxdur”, degan xikmat yuradi. Darhaqiqat xushsado ovozli xonandalarni butun xalq ardoqlaydi, uyining to‘rida mehmon qilib, uning honishlaridan bahramand bo‘ladi. YArim podshohlikning hurmat, izzati ham shudir. Xonandalarning niyati “har doim to‘y, tinchlik–hotirjamlik bo‘lsin” deydi. Sababi, xalq to‘y, bayramlar qilsa, demak bu yurtida to‘qlik va farovonlik hukm surayotgan bo‘ladi. Obod va farovon yurtida bayramlar ko‘payadi, bayramlar ham o‘z navbatida yaxshi san’atkorlarni ko‘paytiradi. Ularning orasida xalq sevgan xonandalar ham ko‘payadi. Xozirgi davrimiz aynan farovonlik hukm surayotgan davrdir. Bo‘lajak yosh shogirdlar ashula aytish bilan birga o‘zbek san’ati, xonandalar, ularning ovoz imkoniyatlari, hayotidagi ibratli voqealar haqida ma’lumot olishsa foydadan xoli bo‘lmaydi.



### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi.-T.: O‘zbekiston, milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000y.
2. Karimov I. A.YUksak ma’naviyat yengilmas kuch. -T.: Ma’naviyat, 2008y.
3. Karimov I. A.O‘zbekiston mustaillikka erishish ostonasida.-T.: Ma’naviyat, 2011y.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘risida”gi onuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.” -T.:Ma’rifat, 2014-y
5. Orif Alimaxsumov / S.Begmatov. – Toshkent: Meriyus, 2017, 128 b.
6. An’anaviy o‘shichilik va maom asoslari. Fan dasturi. Tuzuvchilir: .Mamirov, M.Mamirov, -T.: 2001y.
7. Axmedov F. Ommaviy bayramlar rejissurasi.-T.: Aloachi, 2008y.
8. Fayzullayev E. Bo‘lajak musia o‘ituvchilari badiiy didini shakllantirishda o‘zbek mumtoz musiasi imkoniyatlaridan foydalanish.-T.: 2008yil.
9. Ismoilova M.E. “Alla mavzusiga baishlangan dars”. Pedagogik ta’lim jurnali, -T.: 2-son 2004y.
10. Nosirov R. Xal o‘shilari kompazitsiyasi.-T.: Fan, 2006y.
11. udratov I. Talabalarni xal o‘shilari vositasida estetik tarbiyalash (monografiya)-T.: Fan, 2009y.
12. Soipova D. Musiiy va musiiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish.-T.: 2006y.
13. Yuldoshev S. Xalq urf-odatları va an’analari.-T.:-Ijod dunyosi, 2003y
14. .Rajabov. I “ Makomlar masalasiga doir” T.,1963 y.